

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 18-fevral // №7(9592)

TA'LIM FALSAFASI

BOSHPIANASIZ MAKTAB

TA'LIMDAGI TURBULENTLIK

3-bet

MUAMMONING YECHIMI BORMI?

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?

Oxirgi vaqtlarda maktabga kelgan tekshiruvchilar faqat o'quvchilar davomatini so'rayapti. Bola sanayapti. Sanoq epidemiyasi boshlangan. Maktab ta'limining mazmuni faqat davomatdan iborat ekan. To'g'ri, davomat o'quvchining bilim darajasiga bevosita ta'sir qilib, intizom, mas'uliyatni shakllantiradi. Davomat maktab reytingini belgilaydi. Ammo ta'lim sifati kerak emasmi? O'quvchining bilimi reytingga ta'sir qilmaydimi?

Maktablarda faqat davomat tekshirilishi o'quvchilarning fanga munosabati, ta'lim sifatini susaytirish bilan birga sinf rahbarlari, o'qituvchilarning kasbga bo'lgan mehri sovushiga ham olib kelyapti. Davomati past sinf rahbarlari jazolanyapti. Natijada fan o'qituvchilari ham butun diqqatini mavzuga emas, davomatga qaratmoqda.

Darsini yaxshi o'tgan o'qituvchining davomati ham zo'r bo'ladi. Tekshiruvchilarga bu fikrimizni qanday yetkaysak ekan-a?!

Gulchehra ASHUROVA

Sertifikat olish oson emas, to'g'ri, o'quvchilar o'qib-izlanib olishaypti. Lekin baribir sertifikat oldi degani, bilimli bo'ldi degani emas. Aslida maktab bitiruvchilari maktab baholari asosida o'qishga qabul qilinishi, yo'nalishlar ustuvorligi ko'rilishi kerak. Shunda o'quvchilar maktabda fanlarni har tomonlama o'zlashtirishga harakat qilsalar kerak.

Diloyat OBIDOVA

Sinflardan chorak davomida olayotgan nazorat BSB, CHSBlarning qog'oz variantini ham so'rashyapti. Hamma davlat hujjatlari elektronlashayotgan bir davrda yana qog'ozga qaytish qanchalik to'g'ri? Umuman, yangi baholash tizimi o'zini oqlayaptimi, yo'qmi, bu endi boshqa mavzu. Qayta ko'rib chiqish kerak...

Erkinjon YARASHEV

BIR SAFAR –
MING ILHOM:
KOREYA TA'LIMIDAN
TAASSUOTLAR

6-bet



Siz nima deysiz?

Buyuk shaxsiyatlar hayoti – ibrat maktabi



Kitob o'qigan odamning xotira qatlarida o'qiganlari qolib ketaveradi. Yillar o'tib, ma'lumotlar xiralashib, unutilishi mumkin, lekin qandaydir sabab, muammoli holat yuz berganda xotira uyg'onadi. Qiyinchilik qarshisida qolgan odam bilganlari, o'qiganlari, o'rganganlari va tajribasi asosida masalani hal etishga urinadi. Shu bois har qanday davrda har bir millat, har bir elat uchun muammolardan qutulish yo'li Kitob deb topilgan.

Sir emas, pul topish, yangi mashina olish, uy ustiga uy qurish, so'nggi rusumdagi telefon, so'nggi urfdagi kiyim, oshxona va ko'ngilochar joylarda turli yutuqlarni "yuvish" – bugunning bosh maqsadiga aylandi. Fransuz adibi Viktor Gyugo yozganidek, taraqqiyotni ijtimoiy hayotning moddiy bazasi, deya, moddiyatni oldinga, ma'naviyatni esa ortga surdik. Kitob o'qish targ'ibiga qancha urinsak-da, katta auditoriyada yildan yilga badiiy asarlar o'qigan talabalar barmoq bilan sanarli bo'lib qolmoqda.

Bugun aksar yoshlarimiz dunyo milliardlariga havas qiladi. "SpaceX" va "Tesla" bosh direktori Ilon Mask, universitet diplomini bo'lmasa-da, "Oracle Corporation" – dasturiy ta'minot va bulutli muhandislik tizimlariga ixtisoslashgan texnologiya kompaniyasi asoschisi Larri Elison, garajdan boshlangan "Amazon"ni bugungi savdo gigantiga aylantirgan Jeff Bezos, "Google" ortidagi Sergey Brin, Larri Peyj hayoti bugun yoshlar nigohida. Ularning sarmoyasi haqidagi xabarlardan yoshlar qalbida hayrat, orzu-havas barq uradi. Men ham 30 yoshimgacha shunday maralarni egallashim kerak, degan havasda millionerlar hayoti, bajargan ishlarini,

podkast, suhbat, intervyularini muntazam kuzatib borishadi. Hatto maktabdagi kichik bolachalar ham Pavel Durov ("Telegram"), Mark Sukerberg ("Facebook")ga taqlidan nimadir yaratmoqchi, barchaning nazarini o'ziga qaratmoqchi, maktabdagi BSB va CHSBlarni topshirishdan birvarakayiga qutulmoqni orzu qiladi...

Xo'sh, shunday bo'lsa, nimasi yomon? Havas qilib, bolalar ular kabi dunyoga dong taratsa, qaytaga yaxshimasmi? – deyingiziz mumkin.

Biroz shoshmaylik. Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasidagi "Shoxdor ona bug'u" haqidagi rivoyatni eslaylik. Rivoyatda Mo'min chol hikoyasiga qo'shimcha tarzda to'rtta kiritma gap keltirilgan. Bu kiritmalar rivoyat mazmunining ixcham formulasi bo'lib, murojaat shaklidan tortib asar kompozitsiyasidagi o'rni, badiiy vazifasigacha uzukka ko'z qo'ygandek:

1. "E bo'tam, odamlar aql o'rni boyligini ko'z-ko'z qilishsa, bu qanday yaramaslik".

2. "E bo'tam, hofizlar hamd-u sano o'qishda bahslashsa, qanday yaramaslik, ular qo'shiqchidan qo'shiq kushangdasi-ga aylanishadi".

3. "E, bo'tam, qadimgi odamlardan qolgan bir gap bor: boylik takabburlikni, takabburlik esa telbalikni tug'diradi".

4. "E bo'tam, pul hukmron bo'lgan joyda ezgu so'zga o'rin yo'q, go'zallikka o'rin yo'q".

Chingiz Aytmatov – daho ijodkor. Uning asarlarini o'qir ekansiz, bolaligidan og'zaki ijod – ertak, qo'shiq va afsonalardan to'yingan qalbidan xalqnidek teran, dono, purma'no o'gitlar to'kilganiga ishonch hosil qilasiz. "Shoxdor ona bug'u" rivoyatidagi mazkur fikrlarda ham ayni shu jihat ustun. Kiritmalar yoshi kattalarning o'z nabirasiga o'git berganda aytadigan "E bo'tam" murojaati bilan boshlanishining o'zidayoq xalqning ruhi ko'rinadi. Bunda mehr, muhabbat, yaqinlik, yo'l ko'rsatish, xato ishdan yumshoqlik bilan ogohlantirish hissi jam. Ayni choqda bunday ishni aslo qilma, degan qat'iy talab ham mavjud. Xo'sh, Mo'min chol ey bo'tam, deya hayotga endi qadam qo'yayotgan bolaga nimani o'git bergan? Boylikka berilmaslik – odamiylikni unutmazlik.

Masalaga qaytaylik. Bugun millioner bo'lish sirlarini qunt bilan o'rganayotgan, shu tomon odimlayotgan yoshlarimizning Mo'min cholning ogohlantirishidan xabari bormikan? Yoki Hazrat Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida Mashriq-u Mag'ribni o'z tasarrufiga olgan Iskandarning:

*Bu panjaki, barmog'lari chekti saf,
Jahonni jahon ahlidin urdi kaf.
Kafi ichra oldi jahon kishvarin,
Baru bahrning la'l ila gavharin.*

*Chu urdi ajal ilgi tabli rahil,
Baqo bo'ynig'a soldi habli rahil.
Jahondin shal ilgi misoli borur,
Nechukkim, chinor ilgi xoli borur.
Angakim, madadkor bo'lg'ay bilik,
Jahon shug'lidin bori chekkay ilik, –*

deya aytgan o'git-vasiyatining mohiyatini mushohada qilganmikanlar? O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlangan Bobur mirzoning "Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen, Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen", degan iqrorini, yoki "Bu besh kun uchun o'zungni asru tutma", "O'zungni shod tutqil, g'am yema dunyo uchun zinhor, Ki bir dam g'am yemakka arzimas dunyoyi farsuda" degan o'gitlarini bilarmikanlar?!

Bilmasalar, ularni o'rgatish, o'qitish, Prezidentimiz Murojaatnomasida alohida ta'kidlagandek, yoshlarimizda kuchli ma'naviy-ruhiy immunitetni shakllantirishimiz lozim.

Chingizxon shunday o'g'li bo'lishini orzulagan Jaloliddin Manguberdi, ulug' saltanat dardida umrining ko'p qismini ot ustida o'tkazgan Amir Temur, davlat xazinasidan biror narsa olmay, daromadidan Husayn Boyqaroga peshkash(hadya)lar qilgan Alisher Navoiy, o'zga yurtida siym-u zar to'plamay, ulug' bunyodkorlik qilgan Zahiriddin Muhammad Bobur, dunyoni nazarga ilmay, qalb-larni egallagan Mashrab, o'z hisobidan maktab ochib, darsliklar yozgan, talabalar xorijda o'qishi uchun ko'mak bergan jadidlarimiz hayotidan ibrat olish, ularga ergashishni uqtiraylik. Dunyoqarash, maslak, e'tiqod va dinda farq qiladiganlarga ergashish – millatni tanazzulga yetaklaydi. Shu bois biz bolalarimiz, yoshlarimizning dunyo tamaddunida garchi boy bo'lsa-da, bu sarvatni asl maqsad, yashash mohiyati deb bilmagan, ezgu so'z, ezgu amallari bilan nomlari tanilgan buyuk zotlardan ibrat olishiga erishaylik! Buni amalga oshirishda jonkuyar muallim va murabbiylardan yangi tashabbuslar kutib qolamiz.

Nasiba BOZOROVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
dotsenti

Kelajak o'qituvchisi – kelajak poydevori



Globalashuv, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan davrda, ta'lim tizimida mas'uliyatli vazifalar oshmoqda. Bu jarayonlarda bosh omil va tayanch kuch – o'qituvchi. Zero, "kelajak o'qituvchisi" degan tushuncha tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotgani bejiz emas. Chunki ertangi kun taraqqiyoti, yosh avlodning ma'naviy va intellektual qiyofasi, jamiyatimizning kelajagi bevosita ularning salohiyati va fidoyiligiga bog'liqdir.

Yaqinda taqdim etilgan "Kelajak o'qituvchisi" konsepsiyasi – bu zamonaviy pedagogik fikr taraqqiyotidagi muhim burilish nuqtasidir. Mazkur konsepsiya ta'lim sifatini yanada oshirish, o'qituvchini nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy yetakchi sifatida shakllantirishga asos bo'ladi. U o'zida XXI asr o'qituvchisiga qo'yilayotgan talablarni umumlashtiribgina qolmay, balki bu kasb egasining ma'naviy-ma'rifiy mas'uliyatini ham yuksak darajada namoyon etadi.

So'nggi yillarda o'qituvchi kasbiga e'tibor keskin oshdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan ta'lim sifatini yanada oshirish, pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirish bo'yicha bir qator qaror va dasturlar qabul qilindi. "Kelajak o'qituvchisi" konsepsiyasi ana shu huquqiy asoslar va amaliy tajribalar asosida shakllandi.

Konsepsiya taqdimoti nafaqat ta'lim muassasalari, balki ilmiy-pedagogik doiralar, amaliyotchi o'qituvchilar va keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Mazkur hujjatda ilgari surilgan yondashuvlar zamonaviy ta'limga qo'yilayotgan universal va milliy talablarni uyg'unlashtirgan. Ya'ni o'qituvchi shaxsni shakllantiruvchi, ijtimoiy ongni tarbiyalovchi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shuvchi yetuk mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi.

Konsepsiyada zamonaviy o'qituvchi faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishlari aniq belgilab berilgan. Avvalo, u tanqidiy va tizimli fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Shu bilan birga, raqamli savodxonlikni mukammal egallashi, zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llay olishi talab etiladi. O'qituvchining psixologik hamda pedagogik kompetensiyalari chuqur

shakllangan bo'lsa, u ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori natijalarga erishadi. Eng muhimi, jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatini chuqur his etib, o'z kasbiy faoliyatida barkamol avlodni voyaga yetkazishga mas'ul shaxs sifatida namuna bo'lishi lozim.

Yana bir muhim jihat – konsepsiya amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, unda ustozlik maktablari, kasbiy diagnostika, umumiy va individual rivojlanish xaritalari kabi zamonaviy usullarni keng joriy etish nazarda tutilgan. Bu orqali nafaqat yosh o'qituvchilarning, balki tajribali pedagoglarning ham doimiy ravishda kasbiy jihatdan o'sishi ta'minlanadi.

Shuningdek, "Kelajak o'qituvchisi" tushunchasi orqali ta'limning barcha bosqichlarida uzluksizlik, izchillik va integratsiyaga asoslangan yondashuvga alohida urg'u berilgan. Aynan mana shu omillar ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari, xususan, Chirchiq davlat pedagogika universiteti jamoasi uchun mazkur konsepsiya kelgusi strategik harakatlarning asosiy tayanchi va dasturiga aylanmoqda. Bugun biz tayyorlayotgan o'qituvchi ertangi jamiyatning ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi, yuksak intellektual salohiyatga ega, barkamol shaxs bo'lmog'i lozim. Chunki o'qituvchi qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi.

Doston BERDIYEV,
CHDPU o'qituvchisi



O'qituvchi minbari

TA'LIM FALSAFASI

BOSHPANASIZ MAKTAB

Keyingi vaqtda Xitoy Xalq Respublikasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ilmiy va ta'limiy sohalarida o'zining olamshumul yutuqlari bilan butun jahon afkor ommasini hayratga solmoqda. O'tgan yillarda bo'lib o'tgan PISA tadqiqotlari va xalqaro fan olimpiadalari natijalariga ko'ra, xitoylik o'quvchilar dunyo bo'yicha peshqadam o'rinlardan birini egallabdi. Shu omillar sabab bo'lib, "Учитель Узбекистана" gazetasining 2025-yil 28-noyabr sonidagi Marina Nikolenkoning "Xitoy tajribasi saboqlari" sarlavhali maqolasini katta qiziqish bilan o'qib chiqdim. Shundan so'ng mavzu bilan yaqinroq tanishish maqsadida internet tarmoqlarini titkilashga kirishdim va XXR ta'lim tizimi haqida muxbirning maqolasida e'tibordan chetda qolib ketgan ma'lumotlarga duch keldim.

Ma'lum bo'lishicha, haqiqatan ham, Xitoyda boshlang'ich ta'lim gazetada yozilganidek, olti yillik ekan. Bola 1-sinfga sinov orqali qabul qilinarkan, ammo maqolada buning sababi haqida bir nima deyilmagan. Bundan shunday xulosa chiqardimki, Xitoy maktablarida o'quvchilarni saralash jarayoni 1-sinfdan boshlab yuboriladi va bolalarga qobiliyatiga qarab ta'lim beriladi. O'quvchilar uchun navbatdagi imtihon olti yildan so'ng o'tkazilib, o'rta ta'lim bosqichi boshlanarkan. Shu joyda bir nomuvofiqlik e'tiborimni tortdi: sinovdan o'tolmagan o'quvchilar qabul imtihonlarisiz yashash joylaridagi maktablarda o'qishni davom ettirishlari mumkin ekan. Xo'sh, yashash joylaridan tashqaridagi maktablar qanaqa bo'ladi-yu, nima uchun ularda o'qish uchun imtihondan o'tish kerak?! Sizga bu bir vaqtlar o'zimizda faoliyat ko'rsatgan mashhur "Qorako'l maktablari"ni eslatmayaptimi? Masalan, Urgut tumanida ham shunday maktab – "Iqbol" litseyi mavjud edi. Unga ham o'quvchilar sinov bilan qabul qilinardi. Ana o'sha maktab o'quvchilari xuddi xitoyliklardek oliy o'quv yurtlariga kirishda 98–100 foizlik natija ko'rsatardi. Samarqand viloyat xalq ta'limi boshqarmasining sobiq boshlig'i Azamat Umarovning so'zi bilan aytganda: "Olimpiada va boshqa tanlovlarda viloyat maktablari ularga teng kelolmasdi". Ammo hozir qani o'sha maktab? Butun viloyatga dong'i ketgan "Iqbol" litsey-maktabining tugatib yuborilganiga ko'p yillar bo'ldi. Maktabda jonkuyar ustoz G'aybiddin Fazliyev rahbarligida faoliyat ko'rsatgan fidoyi ustozlar allaqachon pensiyaga chiqib, ba'zilar vafot etib ketishdi. Yaqinda o'sha yillari tuman xalq ta'limi bo'limini boshqargan hurmatli ustozimiz bilan gurunglashib qoldim. Sobiq mudir "Iqbol" maktabining tugatilishi ish-faoliyatidagi yo'l qo'yan eng katta xatosi bo'lganini mardlarcha tan oldi. O'sha maktabning ma'naviy merosxo'ri hisoblanmish 136-ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi hozir Samarqand davlat universiteti qoshidagi Aniq fanlarni o'qitishga ixtisoslashgan maktabning binosida ijarachi maqomida faoliyat

ko'rsatmoqda va bu IDUM ham tugatilmish degan uzunquloq gaplar yuribdi. Axir o'sha mashhurlik davridayam 54-o'rta maktabning bir burchagida jon saqlagan "Iqbol" litsey-maktabining umrining oxirigacha boshpanasi bo'lmagandi-da. Uning tugab ketishiga ham bosh sabab balki shu bo'lgandir... Axir, bino-siz maktabni tasavvur qilib bo'ladimi?!

Shu o'rinda bir sirli so'roq meni shubhalantiradi: taqlid qilishga, xorijdan g'oya o'g'irlashga mohir xitoylik ustasifaranglar bizning o'sha "Qorako'l maktablari"dan nusxa ko'chirmaganmikanlar?!

TA'LIMDAGI TURBULENTLIK

Turbulentlik – bu tabiat hodisasi bo'lib, suyuqlik va gazlardagi oqimlar uyurining tartibsiz harakatlanishi. Turbulentlik suv va havo kemalari harakatini beqarorlashtirib, ba'zan xatarli vaziyatlarni paydo qilishi mumkin.

Umrin davomida ta'lim sohasida o'tkazilgan ikki katta tajribaning guvohi bo'ldim. Oldindan aytib qo'yay: ikkalovi ham mutlaqo kutilmagan teskari natija bilan tugadi. Albatta, tajribadagi salbiy natija ham natija hisoblanadi. Biroq ushbu o'zgarishlarning eng yaramas jihati shu bo'ldiki, ular avval tor doirada sinab ko'rilmadan, birdan butun mamlakat miqyosida joriy etildi. O'zgarishlarning birinchisi o'tgan asrning 60-yillari oxiri va 70-yillar boshida bo'lib o'tdi. O'shanda faoliyat ko'rsatib turgan turli xildagi maktablar tugatilib, o'rniga yagona nusxa va andozadagi o'rta ta'lim muassasalari tashkil etildi. Ta'lim tizimining bu tarzidagi birxillashuvi maktablar orasidagi raqobatga chek qo'ydi. O'sha davrdan meros bo'lib qolgan "Ikkiyil va ikki yilliksiz!" degan bo'lmag'ur tamoyilga to hozirgacha amal qilib kelinmoqda.

Ikkinchi o'zgarishmamlakatimizmustaqillikka erishgandan keyin 1997-yili amalga oshirildi va ozodlik shabadasi uyg'otib yuborgan yangi ta'lim g'unchalarini juvonmarg qilib ketdi. Bunga yangi asrimiz boshida tugatib yuborilgan, biz yuqorida aytib o'tgan maktab yaqqol misol bo'la oladi. O'shanda ham turli maqomlarda faoliyat yuritib kelayotgan gimnaziyalar, litseylar, ixtisoslashgan va oddiy o'rta maktablar – barchasi taroqning tishidek teng qilinib, 9 yillik bir xildagi umumta'lim maktablariga aylantirib yuborildi. Maktablardagi ta'lim mezon, yakuniy natija ko'zga ko'rinmagach, ish samaradorligiga e'tibor su-saydi. 2017-yili joriy etilgan yangi tartib ta'lim tizimidagi beqarorlikni yanada kuchaytirdi. Natijada, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar tugatilib, binolari turli vazirliklarga hadya qilib yuborildi. Ba'zi kasb-hunar kollejlari binosi turarjoy, yotoqxona va hatto kasalxona bo'lib ketgan holatlar ham bo'ldi.

Azaldan ma'lumki, ta'lim tizimi beqarorlikni yoqtirmaydi, chunki undagi mehnat natijasi yillar davomida ro'yobga chiqadi. Mana, biz hozir o'ylanmay

qilingan o'sha o'zgarishlar oqibatini o'z faoliyatimizda his qilib turibmiz. Qani o'sha dong'i ketgan maktablar? Qani oliy hurmatga sazovor bo'lgan fidoyi ustozlar? Hozir hurmat negadir ustozga emas, sertifikatga qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiya buyoqda qolib, hamma sertifikat ishqida. Unga erishish uchun ko'z ko'rib, quloq eshitmagan usullar o'ylab topilmoqda. "Podrobno.uz" internet saytining xabar berishicha, huquqni himoya qilish xodimlari Namangan viloyatida sertifikat olib berishga ko'maklashuvchi jinoiy gu-ruhni fosh etgan. Ular faoliyatini bunker usulida tashkil qilib, sertifikat orzumand-lariga test javoblarini telefon va boshqa turdagi aloqa vositalari yordamida yetkazib turishgan. Yana boshqa holatda vazirlik xodimi bir opaga intim yaqinlik evaziga sertifikat olib berishni va'da qilganligi ma'lum bo'lib qoldi. O'zim bir hamkasbimdan sertifikat uchun olajak bir yillik ustamasini berganligi haqida eshitdim. Menga yetib kelgan ma'lumot-larga ko'ra, sertifikat ishqibozlari sinovda tushadigan savollarni yodlab, shu orqali imtihon topshirar ekanlar. Albatta, bularning bari muhtog'ning bizga ko'ri-nib turgan kichik bir bo'lagi, xolos.

Endi o'zingiz o'ylab ko'ring: shu tariqa olingan qalbaki hujjatlar bilan ta'lim samaradorligini oshirib bo'ladimi? Nahotki, ustama va mukofotlar mehnat natijasiga qarab emas, shubhali yo'llar bilan olingan qog'ozlarga qarab beril-sa... Bu bilan sertifikatini haqqi-halol yo'l bilan olgan bilimdon fidoyi o'qituv-chilar sha'niga dog' tushirish fikridan yiroqman. Ammo qat'iy ishonchimga ko'ra, qo'shimcha ish haqi va mukofotlar sertifikatga emas, ta'lim samaradorligiga qarab berilishi kerak. Buni aniqlashning juda oddiy va sinalgan usullari mavjud. Masalan, sinfda u yoki bu fan bo'yicha nechta a'lochi o'quvchi borligini yoxud maktab bitiruvchilaridan qanchasi oliy o'quv yurtlariga qabul qilinganligini aniqlash kerak, xolos!

MUAMMONING YECHIMI BORMI?

Bu borada maktablarda latifanamo voqealar ham bo'lib turadi. Ijtimoiy tar-moqlarda yozishiga qaraganda, bir talab-chan o'qituvchi shogirdiga qo'yan bitta past bahosi uchun ustamadan mahrum etilibdi. Bunda umumiy natija hech kimni qiziqtirmagan. Menimcha, usta-ma baho quruq qog'ozga emas, ish nati-jasiga qarab berilishi kerak edi. Chunki baho ham, sertifikat ham samarali ta'lim berish yo'lidagi vositalardir. Afsuski, bizda ko'p holda vosita maqsadga aylanib bormoqda. Baholash usullarining har zamonda o'zgarib turishi, qog'oz hujjatlarining orzu darajasiga ko'tarilishi yoki qog'ozbozlikning kuchayishi ana shu jarayonning oqibatlaridir. Ta'lim sohasining jonkuyarlaridan biri Komiljon Jalilovning qayd etishicha, "Sohamizda aniq bir ta'lim falsafasi mavjud emas. Maktablarimiz bolani shunchaki andar-mon qilib o'tiradigan joy bo'lib qolmoq-da". Uning fikriga zarafashonlik mohir

pedagog Erkinjon Yarashevning quyida-gi so'zlari ham hamohang: "Nega milliy taomlarimiz, milliy kiyimlarimiz, milliy urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz bor-u, milliy o'quv dasturimiz yo'q?". Yana bir jonkuyar biologiya o'qituvchisi Botirjon Karimovning gapi ham Komil-jonning yuqoridagi so'zlariga mos kela-di: "Men bugun ta'lim sohamizdan biror nima kutmayapman. O'rta maktablar bo-lalarning bo'sh vaqtini o'tkazishi, ular-ni jinoyatchilikdan asrab turish uchun nomiga ma'lumoti haqida hujjat berish-ga xizmat qiladi, xolos".

Ammo unga ustoz Hulkaroy Azimo-va e'tiroz bildiradi: "Maktablarda ham zo'r o'quvchilar ko'p. Bizning maktabda o'quvchilarimizning doim 90–100 foizi oliy ta'limga o'qishga qabul qilinadi. Xalqaro OTMlarga ham muddatidan ol-din kiriyapti".

Qizig'i shundaki, Karimov aytgan maktabda ham, Hulkaroy Azimovanning maktabida ham o'qituvchilarga bir xil tartibda ish haqi to'lanadi. Bu adolatsizlik emasmi?! Prezidentimiz aytgan o'sha 1000 dollarlik maoshni Hulkaroyning maktabiga o'xshash bilim dargohlarida ishlaydigan o'qituvchilarga berish kerak. Ana shundan keyin boshqa maktablarda ham harakat paydo bo'lsa ajab emas.

Hozir Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan bizning sevimli sobiq hokimimiz Erkinjon Turdimov ta'lim sohasiga katta e'tibor bilan qarar edi(hozir ham shunday bo'lsa kerak). U kishi bir gal katta anjuman chaqirib, bitiruvchilari OTM qabul imtihonlaridan o'tolmagan maktab direktorlarini qattiq jazolagani yodimda. Shovvoz direktorlar bundan to'g'ri xulosa chiqarib, jonlanib qol-gandir deb o'ylaysizmi? Afsuski, ayrim rahbarlar bundan "to'g'ri" xulosa chiqa-rib, to'g'rirog'i, muqarrar jazo va javob-garlikdan qo'rqib, turli bahonalar bilan maktablaridagi X–XI sinflarni tugatib yuborishdi.

Nazarimda, ta'lim falsafasi bitta. U ham bo'lsa, o'quvchiga yaxshi bilim berish. Qolgan barcha jarayonlar shuning atrofida aylanishi kerak. Bizning diqqat markazimiz sertifikat yoki qog'ozbozlikka qaratisa, hech nima o'zgarmaydi. Shu ma'noda, avval ko'p marta ayt-ganim va vazirlikka bergan takliflarimni yana bir bor takrorlayman. Bizda ham o'zimizda bir vaqtlar bo'lgan va hozir xitoyliklar amalda qo'llayotgan imtihon bilan o'qishga qabul qiladigan namunali o'rta maktablar bo'lishi zarur. Ularga oliy toifali malakali o'qituvchilar ishga olinib, yuqori ish haqi berilishi kerak. Bunday maktablar atrof mahallalardagi bilimga chanqoq yoshlarni katta hayot-ga tayyorlashi lozim. Ana shunda biz ham xuddi xitoyliklar singari qobiliyatli o'quvchilarimizni ro'yobga chiqaramiz va xalqaro sinovlarda yaxshi natijalarga erishishimiz mumkin. Shu orqali raqo-bat maydoni vujudga kelib, zora, boshqa oqsayotgan maktablarda ham jonla-nish paydo bo'lsa. Xitoy tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatda malakali kasb-hunar ta'limi ham bo'lishi zarur. Chunki xalq xo'jaligiga faqat ilmiy xo-dimlar, ziyolilar va muhandislardan tash-qari malakali ishchilar, xizmatchilar, qu-ruvchilar kabi o'rta soha mutaxassislari ham juda kerak.

Xudoyberdi KOMILOV,
O'zbekiston Yozuvchilar va Jurnalistlar
uyushmalari a'zosi



Ogohlilik

1969-yili ARPANET (AQSH mudofaa departamenti tomonidan yaratilgan birinchi paketli kompyuter) yaratilgandan keyin kompyuterlarni o'zaro tizimlashtirish muammosi yuzaga keldi. Yillar davomida takomillashtirish natijasida 1980-yillari internet paydo bo'ldi va 1990-yillar o'rtalarida dunyo bo'ylab tez sur'atda tarqaldi.

Kibersavodxonlik — eng zarur himoya

Insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri deb e'tirof etiladigan WWW (world wide web), ya'ni "Butunjahon o'rgimchak to'ri" ana shunday shakllandi. Yillar o'tishi bilan u kengayib, turli xil sahifalar, ilovalar va web-saytlar yaratilishi bilan uning imkoniyatlari ham aql bovar qilmas darajada oshdi. Bugungi kunga kelib esa internet nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki insoniyatning tom ma'nodagi ikkinchi olami — virtual dunyo aylandi. Rasmiy statistikaga ko'ra, dunyo aholisining salkam 70 foizi, ya'ni 6 milliardga yaqin odam internet tarmoqlaridan foydalanmoqda. Afsuski, bundan nomaqbul yo'llarda foydalanayotgan, insonlarning virtual shaxsiy kabinetlarini buzib kirayotgan, ularga moddiy va ma'naviy, ayniqsa moliyaviy zarar berayotgan kimsalar ham yo'q emas. Bunga qarshi turishning eng samarali chorasi esa kibersavodxonlikdir.

Raqamli dunyodagi huquqbuzarliklar ham o'z tasniflariga ko'ra turlicha bo'ladi. Binobarin, kiberjinoyatlarning "pocket stuffing" (*tuzoq tizimi, ya'ni qo'shimcha cho'ntak orqali serverni buzib kirish*), "social engineering" (*to'g'ridan to'g'ri emas, boshqa yangi tizim yoki server orqali buzib kirish*), "man-in-the-middle" (*tizimga kirishda ham, chiqishda ham o'zini yangilash orqali*), "vishing" (*ovozli xabar orqali*), "fishing" (*yo'zma xabar orqali*), "smishing" (*SMS-xabarnoma orqali yuboriladigan firibgarlik turi*) kabi bir qancha mashhur va keng tarqalgan usullari mavjud. Shuning uchun ham bugungi dunyoda kiberxavfsizlik davlatlar siyosati darajasida eng muhim mudofaa hisoblanadi. Bundan tashqari, kiberjinoyatchilik uchun huquqbuzarlar alohida texnologiyalar ham ishlab chiqqan bo'lib, ulardan eng mashhuri "EvilTwin" sanaladi. Evil Twin bu "dahshatli egizak" ma'nosini beruvchi xakerlik texnologiyasi bo'lib, u internet tarmog'ining barcha ochiq, yuzaki, ichki hamda internetning eng qorong'u, sirli va yashirin tarmog'i DarkNetda ishlaydi. Bunda kiberjinoyatchi tizimga kirishda xuddi shunday soxta tizim yaratadi va foydalanuvchining IP manzili, ya'ni internet protokolini o'zlashtiradi. Bu esa kiberjinoyatchiga juda ulkan imkoniyatlar taqdim etadi.

Mamlakatimizda kiberxavfsizlikni ta'minlash maqsadida ko'plab chora-tadbirlar ko'rilmogda. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi DXX tarkibida Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish departamenti mavjud bo'lib, bu tashkilot axborot xavfsizligini ta'minlash va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda vakolatli davlat organi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar vazirligi esa axborot xavfsizligini ta'minlash va kommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, axborot

tizimlari va resurslarini himoya qilishning zamonaviy texnologiyalarini tatbiq etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, axborot resurslarini himoya qilish bo'yicha texnik infratuzilmani yanada rivojlantirish, axborot texnologiyalaridan davlat organlari faoliyatida foydalanish va uning samaradorligi bo'yicha ish olib boradi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Bank siri to'g'risida"gi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi, "Axborot xavfsizligi to'g'risida"gi qonunlari va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-sentabrda "Butunjahon internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa bir qancha normativ-huquqiy hujjatlarda kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan normalar mavjud. Qolaversa, Jinoyat kodeksining 201-bobi axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar va ularga belgilangan javobgarlik to'g'risida bo'lib, Jinoyat kodeksining 278-1-moddasi "Axborotlashtirish qoidalarini buzish" haqida bo'lsa, 278-4-moddasi axborotni modifikatsiyalashtirishga oid jinoyatlarni bayon qiladi. Unga ko'ra, axborotni modifikatsiyalashtirish, ya'ni kompyuter tizimida saqlanayotgan axborotni qonunga xilof ravishda o'zgartirish, unga shikast yetkazish, o'chirish, xuddi shuningdek, bila turib yolg'on axborotni kiritish fuqarolarning huquqlariga yoki qonuniy manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazishga sabab bo'lsa, BHMning 100 baravarigacha jarima yoki 2 yilgacha ozodlikdan cheklash yoxud 2 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Axborotlashtirish qoidalarini buzish esa Jinoyat kodeksining 278-1-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinish, BHMning 50 baravarigacha jarima yoki 1 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi mumkin. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, kiberjinoyatchilikka uchragan shaxs tegishli tartibda kompensatsiya talab qilishga haqli. Shaxsga doir ma'lumotlari oshkor qilingan shaxs esa Fuqarolik kodeksining 121-moddasiga asosan ma'naviy zarar talab qilishga haqli. Demak, kiberxavfsizlikni buzganlik uchun javobgarlik qonunchilikda o'z aksini topgan. Biroq, afsuski, kibermakon kun sayin emas, soat sayin kengayayotganligi tufayli undagi kiberjinoyatlarning oldini olish tobora murakkablashib bormogda. Shu sababli fuqarolarning o'zi raqamli muhitdan xabardor bo'lishi va o'zining kiberxavfsizligi uchun kibersavodxonligini muntazam oshirib borishi davr talabidir.

Jasurbek NABIJONOV,
MADAD NNT huquqiy byurosi bosh
mutaxassisi

Oila – maktab – mahalla hamkorligi

Bugun jamiyat hayotida raqamli texnologiyalar tobora chuqur ildiz otib borayotgan bir sharoitda oilaviy qadriyatlar masalasi yanada dolzarb va hayotiy ahamiyat kasb etmoqda. Internet tarmoqlari, ijtimoiy platformalar, sun'iy intellekt imkoniyatlari va raqamli xizmatlar inson hayotini yengillashtirib, axborot olish, muloqot qilish va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirmogda. Biroq shu bilan birga, bu jarayonlar bolalar va yoshlar tarbiyasiga, ularning dunyoqarashi, ma'naviy qiyofasi va oilaviy munosabatlarga ham ta'sir ko'rsatmogda. Ayrim hollarda raqamli muhit an'anaviy muloqotni qisqartirib, ota-ona va farzand o'rtasidagi ma'naviy yaqinlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bois, raqamli transformatsiya sharoitida oilaviy qadriyatlarni asrash va mustahkamlash masalasi faqat oilaning ichki vazifasi sifatida emas, balki keng jamiyat miqyosida hal etiladigan muhim ijtimoiy masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Ota-onalar, pedagoglar va mahalla faollari birgalikda harakat qilgandagina bolalarda axloqiy barqarorlik, milliy qadriyatlarga hurmat va mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish mumkin. Ayniqsa, maktab va mahallaning tarbiyaviy salohiyatini raqamli imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirish, bolalarni virtual makonda ham ma'naviy himoya qilish bugungi kun talabidir. Demak, raqamli davrda oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish oila-maktab-mahalla hamkorligining yangi, zamonaviy usullarini talab etmogda. Bu hamkorlik orqali nafaqat an'anaviy tarbiya usullari, balki raqamli madaniyatga mos, ma'naviy jihatdan barqaror avlodni tarbiyalash imkoni yaratiladi.

Raqamli transformatsiya davri bolalar va yoshlar hayotiga yangi imkoniyatlar olib kirmogda. Bugun onlayn ta'lim platformalari, elektron kutubxonalar, interaktiv darslar va masofaviy muloqot vositalari orqali bilim olish jarayoni ancha osonlashdi. Masalan, qishloq hududlarida yashovchi o'quvchilar ham internet orqali respublika va hatto xalqaro ta'lim resurslaridan foydalanish, til o'rganish yoki fan olimpiadalariga tayyorgarlik ko'rish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa bolalarning intellektual rivoji va dunyoqarashini kengaytirishda muhim omilga aylanmogda.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarga qaralsa, bolalarning umumiy 87 foizi smartfon yoki mobil qurilmalar orqali internetga ulangan. Shuningdek, 75 foiz bolalar elektron qurilmalardan dars uchun, 84 foizi esa o'yin va shu kabi boshqa kontent uchun foydalanishi qayd etilgan. 2025-yil oxiriga kelib O'zbekiston aholisining taxminan 89 foizi internetdan foydalanmogda. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni 2024-yildan 2025-yilgacha 41,7 foiz oshganligi aniqlangan.

Biroq raqamli muhitning imkoniyatlari bilan bir qatorda, muayyan xavf-xatarlar ham mavjud. Ayniqsa, virtual makonda vaqt o'tkazish me'yori buzilishi, ijtimoiy tarmoqlarga ortiqcha berilish va axborot tanlashda nazoratning yetarli emasligi bolalar psixologiyasi va tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmogda. Masalan, ayrim bolalar o'qishdan keyingi vaqtini to'liq telefon yoki kompyuter o'yinlariga sarflab, jonli muloqotdan, kitob o'qishdan va oilaviy suhbatlardan uzoqlashib qolmogda. Shuningdek, milliy qadriyatlarimizga zid, zo'ravonlik yoki ma'naviy bo'shliqni targ'ib qiluvchi kontentlar yoshlar ongiga

sezilmas tarzda salbiy ta'sir o'tkazmogda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar (taxminan 67 foizi) kun davomida 1–3 soatni onlayn muhitda o'tkazmogda. Bu ularning raqamli makondagi faoliyati ota-onalar va pedagoglar tomonidan tizimli nazorat qilinishi hamda maqsadli yo'naltirilishi zarurligini anglatadi. Shu bilan birga, internetdan foydalanish darajasi yuqori bo'lgan bolalar qatлами orasida 10 foizdan ortig'i kun davomida had-dan tashqari ko'p vaqtini onlayn muhitda o'tkazayotgani kuzatilmogda. Ushbu holat bolalar tarbiyasida maktab, mahalla va oila faoliyatining o'zaro muvofiqlashtirilishi, shuningdek, maqsadli tarbiyaviy yo'l-yo'riqlar va kuchaytirilgan tizimli nazoratni joriy etish zarurligini yaqqol namoyon etadi.

Bunday vaziyat oiladagi tarbiyaviy munosabatlarga ham bevosita ta'sir qilmogda. Ayrim hollarda bola kun davomida ota-onasi bilan kam muloqot qilib, asosiy vaqtini internet yoki ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazmogda. Natijada bolaning xulq-atvori, qiziqishlari va dunyoqarashida virtual muhit ta'siri ustuvor bo'lib qolmogda. Masalan, ota-ona bolaning darsini so'rab, suhbatlashish o'rniga unga telefon berish bilan cheklansa, bu holat tarbiyadagi bo'shliqni yanada chuqurlashtiradi. Shu sababli, zamonaviy sharoitda oilaviy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlash an'anaviy tarbiya usullari bilan cheklanib qolmasdan, raqamli muhitga mos yangi yondashuvlarni talab etmogda. Ota-onalar bolalarda internetdan to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini shakllantirishi, raqamli qurilmalardan foydalanish vaqti va mazmunini nazorat qilishi muhim. Masalan, oilada "raqamli odob qoidalari"ni joriy etish, kechki paytda barcha a'zolar uchun telefonsiz oilaviy suhbatlar tashkil etish, foydali ta'limiy kontentlarni birgalikda tanlash orqali raqamli muhit tarbiya vositasiga aylantirilishi mumkin.

Raqamli muhit oilaviy tarbiya uchun ham imkoniyat, ham sinov hisoblanadi. Undan ongli va maqsadli foydalanilgan taqdirda, u bolalarning ma'naviy, intellektual va ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladi. Aks holda esa, tarbiyada bo'shliq va qadriyatlar inqiroziga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun raqamli davrda oila tarbiyasida mas'uliyatli, ongli va hamkorlikka asoslangan yondashuv hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Oila – birinchi va asosiy tarbiya maskani

Har qanday jamiyatda oila ma'naviy qadriyatlarning ilk va eng muhim man-bayi hisoblanadi. Insonda mehr-oqibat, hurmat, mas'uliyat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik va bag'rikenglik kabi fazilatlar avvalo oila muhitida

Raqamli muhit va oilaviy tarbiya: imkoniyat va xavflar

shakllanadi. Bolaning dunyoqarashi, hayotga munosabati, odamlar bilan umomalasi aynan ota-ona, oila aʼzolarining shaxsiy namunasi orqali tarbiyalanadi. Shu maʼnoda, oila faqat yashash joyi emas, balki shaxs kamoloti uchun asos boʻladigan maʼnaviy makon hisoblanadi. Raqamli davrda ham oilaning bu vazifasi oʻz ahamiyatini yoʻqotgan emas, aksincha, yanada murakkab va masʼuliyatli tus olmoqda.

Bugun ota-onalar farzandining nafaqat moddiy taʼminoti, taʼlimi, balki uning raqamli madaniyati uchun ham javobgar. Qaysi saytlardan foydalanadi, qanday videolarni koʻryapti, ijtimoiy tarmoqlarda kimlar bilan muloqot qilyapti, vaqtni qanday sarflayapti – bularning barchasi oila eʼtiborida boʻlishi lozim. Masalan, bolaning yoshiga mos boʻlgan kontentni tomosha qilishi yoki shubhali onlayn guruhlariga qoʻshilishi uning psixologiyasi va axloqiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli savodxonlik ota-onalar uchun ham muhim tarbiyaviy vositaga aylanmoqda. Ota-ona internetdan foydalanish qoidalarini bilib, bolaga ham toʻgʻri yoʻl koʻrsatishi zarur. Masalan, oilada telefon va internetdan foydalanish vaqti belgilab qoʻyilishi, taʼlimiy va foydali kontentlar birgalikda tanlanishi, kechki payt esa raqamli qurilmalardan uzoqlashib, oilaviy suhbat yoki kitob oʻqish anʼanasi joriy etilishi mumkin. Bunday yondashuv bolada ham intizom, ham masʼuliyatni shakllantiradi. Demak, raqamli davrda oila birinchi va asosiy tarbiya maskani sifatida oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydi, balki yangi vazifalar bilan boyiydi. Ota-onaning ongli yondashuvi, shaxsiy namunasi va raqamli muhitdagi masʼuliyati orqali oila milliy qadriyatlarni saqlabgina qolmay, ularni zamonaviy sharoitda avlodlarga samarali tarzda yetkazish imkoniyatiga ega boʻladi.

Maktab – maʼnaviy va raqamli bilimlar uygʻunligi

Bugun maktab nafaqat anʼanaviy bilim berish muassasasi, balki avlodlarning maʼnaviy kamolotiga asos soluvchi, tarbiya va maʼnaviyatni zamonaviy usullar orqali singdiruvchi muhim makonga aylanmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida elektron jurnallar, onlayn darslar, interaktiv platformalar, mobil taʼlim va virtual laboratoriyalar keng qoʻllanilayotgani taʼlim jarayonini samarali va qiziqarli tashkil etishga koʻmaklashmoqda. Bu orqali oʻquvchilar bilim egallaydi va maʼnaviy tarbiya, jamiyatda faol ishtirok etish va masʼuliyat ruhini ham rivojlantirishi mumkin.

Shuningdek, maktablardagi “aqli sinfxonalar”, elektron fan laboratoriyalari, virtual muzeylar va interaktiv taʼlim platformalari orqali oʻquvchilar mustaqil tadqiqot va loyihaviy faoliyat bilan shugʻullanmoqda. Oilaviy qadriyatlar va milliy anʼanalarga bagʻishlangan onlayn darslar va raqamli loyihalar bolalarda ota-onaga hurmat, yaqinlariga oqibat hamda qoʻshni-qoʻshnichilik va jamoatchilikka masʼuliyat tuygʻularini shakllantirishga

xizmat qiladi. Shuningdek, maktab va oila oʻrtasidagi raqamli muloqot orqali ota-onalar farzandining taʼlim va tarbiya jarayonini elektron jurnallar va mobil dasturlar orqali kuzatib, maslahat va tavsiyalar berib borayotgani quvonarlidir. Mahalla va maktab hamkorligida tashkil etiladigan onlayn uchrashuvlar bolaning internetdan foydalanishi, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati va vaqtni samarali tashkil etish masalalarini muhokama qilish imkonini beradi, bu esa oila va maktab hamkorligini yanada mustahkamlaydi.

“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli koʻrsatkichlariga erishishda taʼlim islohotlari doirasida umumiy oʻrta taʼlim tizimi yangi bosqichga koʻtarilmoqda. Bunda 700 ga yaqin yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qoʻllanmalar va mobil ilova yaratilib, ular bolalarning mustaqil fikrlashi, hayotiy topshiriqlarni hal etish qobiliyati va kundalik hayotda bilimdan foydalanishini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mobil ilova va onlayn platformalar orqali bolalar darslarda uyda turib ishtirok etishi, interaktiv mashqlar bajarishi va bilimni mustahkamlashi mumkin.

Shuningdek, planshetlar uchun yaratilayotgan 1000 ta multimedia dasturlari taʼlimni koʻrgazmali va amaliy qiladi. Masalan, tarix darslari multfilm va videoroliklar bilan boyitilishi, fanlar boʻyicha virtual laboratoriyalarda tajribalar oʻtkazilishi bolalarning fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Bu jarayonda oilaviy qadriyatlar ham eʼtibordan chetda qolmaydi, masalan, ota-ona bilan birga amaliy loyihalarni bajarish, milliy anʼanalarga oid tadbirlarda ishtirok etish bolalarda oilaviy masʼuliyat, hurmat va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Har yili taʼlim muassasalariga jalb etiladigan 500 nafar xorijiy mutaxassis bolalarning til va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirib, dunyoqarashini boyitadi. Bu jarayonda oila va maktab hamkorligi orqali bola fan va til bilimlarini egallaydi, maʼnaviy va axloqiy qoidalarni ham oʻzlashtiradi, oilaviy qadriyatlarga sodiqligi yanada mustahkamlanadi.

Shuningdek, barcha maktablarda kasb-hunar boʻyicha kurslarning joriy etilishi bolalarni hayotiy koʻnikmalarni egallashga, mehnatsevarlik va masʼuliyat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Qishloq xoʻjaligi, kichik biznes loyihalari yoki hunarmandchilikdagi amaliy tajribalar orqali bolalar oila va jamoa hayotida masʼuliyatni his qilish, hamjihatlik va mehnatni qadrlashni oʻzlashtiradi.

Alohida qayd etish kerakki, Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar metodikasini barcha umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida joriy qilish orqali zamonaviy dars usullari, interaktiv platformalar va individual yondashuv bolalarning bilimi, axloqi va maʼnaviy kamolotini uygʻun rivojlantirish imkonini beradi. Demak, 2030-yilgacha taʼlim strategiyasi nafaqat fan bilimini beradi, balki oilaviy qadriyatlar va maʼnaviy tarbiyani zamonaviy raqamli muhitda sa-

marali integratsiya qilishni ham koʻzda tutadi. Qolaversa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oʻtgan yili 26-dekabr kuni Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga yoʻllagan Murojaatnomasida erishilgan ulkan natijalar, yangi ustuvor vazifalar “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini qayta koʻrib chiqishni taqozo etayotgani, mam-lakatimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotiga daxldor boʻlgan ushbu hujjat keng jamoatchilik muhokamasidan oʻtkazilib, aholimiz fikr-mulohazalari asosida takomillashtirilishi zarurligini taʼkidlagani ham juda katta ahamiyatga ega.

Mahalla – anʼana va innovatsiyani bogʻlovchi koʻpri

Mahalla hamisha jamoaviy tarbiya, oʻzaro nazorat va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlash maskani sifatida oʻz ahamiyatini saqlab kelgan. U jamiyatning eng kichik birligi boʻlib, oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar va anʼanaviy madaniy merosni uzluksiz avloddan avlodga yetkazishda muhim rol oʻynaydi. Raqamli transformatsiya davrida mahallaning bu vazifasi yangi shakllarda namoyon boʻlmoqda. Bugun mahallalar ijtimoiy tarmoqlar, messenger guruhlar, elektron axborot kanallari va mobil ilovalar orqali aholi bilan tez va samarali aloqa oʻrnatish imkoniga ega.

Bu imkoniyatlar oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashda ham samarali qoʻllanilishi mumkin. Masalan, mahalla miqyosida onlayn maʼnaviy suhbatlar tashkil etish orqali bolalar va yoshlar ota-onalari bilan birgalikda milliy anʼanalarni, qadriyatlar va axloqiy meʼyorlar haqida maʼlumot olishlari mumkin. Ota-onalar uchun raqamli tarbiya boʻyicha maslahatlar, vebinar va videodarslar orqali farzandlarining internetdan toʻgʻri va samarali foydalanishi nazorat qilinadi. Shuningdek, mahallalarda yoshlar ishtirokida virtual maʼrifiy loyihalar tashkil etish, masalan, “Anʼanaviy kasb va hunarmandchilik” onlayn festivali yoki “Mening oilam va merosim” videoloyihasi, avlodlar oʻrtasidagi anʼanaviy qadriyatlarni zamonaviy shaklda namoyon etishga xizmat qiladi.

Yangi hamkorlik va uygʻunlik

Hozirgi kunda oila, maktab va mahalla nafaqat anʼanaviy tarzda – yigʻilishlar, tadbirlar va uchrashuvlar orqali, balki zamonaviy raqamli muhitda ham samarali hamkorlik borasida katta yutuqlarga erishmoqda. Bu hamkorlikning asosiy maqsadi – bolalarning maʼnaviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini birgalikda taʼminlash, har uch muassasaning harakatini uygʻunlashtirish va ularning bilim hamda tarbiya jarayonini integratsiyalashdan iborat.

Tashkil qilish usullari. Yangi hamkorlikda asosiy eʼtibor texnologik integratsiya va onlayn platformalardan samarali foydalanishga qaratilmoqda. Masalan, onlayn muloqotlar va maslahatlarda ota-onalar va oʻqituvchilar elektron platformalar orqali muntazam fikr almashib, bolaning taʼlim va tarbiya jarayonini bir-

galikda kuzatishadi. Bu jarayonda pedagoglar oʻquvchining oʻqish natijasi va ijtimoiy faolligini tahlil qilib, ota-onalar bilan maslahatlar olib borishi mumkin.

Virtual maʼrifiy loyihalar orqali bolalar maktab va mahalladagi tadbirlarda faol ishtirok etishadi, onlayn seminarlar va maʼrifiy tanlovlarda oʻz imkoniyatlarini namoyon qiladi. Misol uchun, oʻquvchi oila va mahalladagi tajribasini elektron taqdimot orqali namoyon etadi, shu orqali ijtimoiy va maʼnaviy faolligi oshadi.

Raqamli maslahatlar va treninglar orqali esa mahalla faollari ota-onalar uchun onlayn tarbiya va maslahat sessiyalari tashkil qiladi. Bu jarayon ota-onalarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, farzandlari tarbiyasida faol ishtirok etishlarini taʼminlaydi.

Uygʻunlashtirish va integratsiya. Yangi hamkorlikda maktabdagi elektron darslar va onlayn loyihalar oilaviy tarbiya bilan uygʻunlashtiriladi. Bu bolalarning taʼlim jarayoni va maʼnaviy rivojlanishini bir-biri bilan bogʻlaydi. Maktab va mahalla hamkorligi bolaning internetdan samarali foydalanishi, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati va vaqtni oqilona taqsimlashini nazorat qilish imkonini beradi. Ota-onalar, pedagoglar va mahalla faollari maslahat va axborot almashib, bolalarning maʼnaviy va taʼlimiy muhitda doimiy qoʻllab-quvvatlanishini taʼminlaydi. Misol uchun, mahalla va maktab hamkorligida tashkil etilgan onlayn maʼrifiy uchrashuvlarda ota-onalar farzandlarining ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi va vaqtdan samarali foydalanishini muhokama qiladi. Bu jarayon bolaning axloqiy kamoloti va jamiyatga mos shaxs sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Bir-birini toʻldirish va muvozanat. Yangi hamkorlik bolalarning onlayn va oflayn faoliyatini uygʻunlashtirishga xizmat qiladi. Bu nafaqat bilim va maʼlumotni, balki maʼnaviy va tarbiyaviy tajribani ham uygʻunlashtirish imkonini beradi. Maktabdagi raqamli loyihalar oilaviy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va jamoatchilik masʼuliyati bilan bogʻlanadi. Mahalla tadbirlari maktabda olingan bilimlar bilan uygʻunlashtirilib, bolalarning bilim, axloq va ijtimoiy faolligi bir-biri bilan muvofiqlashadi. Masalan, ota-onalar va pedagoglar hamkorligi bolaning maʼnaviy kamolotiga doimiy taʼsir qiladi. Mahalla tadbirlaridagi axborot va onlayn mashgʻulotlar bolalarning oʻqish jarayonidagi koʻnikmalarini mustahkamlaydi va ularning jamoatchilik ishlarida faol ishtirokini taʼminlaydi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya davri oilaviy qadriyatlar uchun faqat xavf emas, balki katta imkoniyat hamdir. Asosiy masala – oila, maktab va mahalla ushbu imkoniyatlarni birgalikda, uygʻun va maqsadli ravishda ishga sola bilishidir. Yangi hamkorlik orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar zamonaviy shaklda saqlanadi, avlodlar maʼnaviy bogʻliqligi taʼminlanadi va jamiyat barqaror taraqqiyotga erishadi.

Husniddin NORQULOV,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi



Xalqaro hamkorlik

BIR SAFAR – MING ILHOM: KOREYA TA'LIMIDAN TAASSUROTDLAR



Yurtimizda ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Jumladan, 2025-yil 15-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida muhim topshiriq berildi. Unda sentabr oyidan boshlab har bir tuman(shahar)dan 5 nafar o'qituvchini xorijiy davlatlarga malaka oshirishga yuborish belgilab qo'yildi.

Mazkur topshiriq ijrosi doirasida Buxoro viloyatidan tanlab olingan pedagoglar Koreya Respublikasida ta'lim safari va malaka oshirish dasturida ishtirok etdi. Bu safar o'qituvchilar uchun katta tajriba va ilhom manbayi bo'ldi. Koreyaga uyushtirilgan ta'lim safarining bosh maqsadi xorijiy ilg'or ta'lim tajribalarini o'rganish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan tanishish, kasbiy kompetensiyasini oshirish, o'rganilgan tajribalarni mahalliy sharoitda joriy etishdan iborat bo'ldi.



Ta'lim sohasida rivojlanish hech qachon to'xtamaydi. Har bir pedagog yangi g'oya, zamonaviy yondashuv va samarali tajribalarni izlab yashaydi. Ana shunday izlanishlarim davomida Koreya Respublikasiga uyushtirilgan ta'lim safari men uchun ham unutilmas taassurotlarga boy bo'ldi. U nafaqat boshqa davlat ta'lim tizimini o'rganish, balki o'z kasbiy faoliyatimga yangicha nigoh bilan qarash imkonini berdi.

Koreyada ta'lim juda tizimli yo'lga qo'yilgan. Eng avvalo, pedagog shaxsiga bo'lgan hurmat e'tiboringizni tortadi. Bu yerda darslar o'yin, tajriba va muvoqot asosida tashkil etiladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarni zeriktirmaslikka alohida e'tibor qaratiladi. O'yin texnologiyalari, jamoaviy ishlash, rolga kirish orqali o'quvchilar yangi ma'lumotlarni oson va mustahkam o'zlashtiradi. Bu yondashuv menga darsni faqat mavzu tushuntirish emas, balki quvonchli jarayon sifatida tashkil etish mumkinligini yana bir bor isbotladi. Shuningdek, Koreyada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samimiy munosabat hukm surishiga guvoh bo'lasiz. O'quvchi xato qilishdan qo'rqmaydi, o'z fikrini erkin bildiradi. Pedagog esa tanqid qilishdan ko'ra yo'naltiradi, rag'batlantiradi. Bu muhitda bola o'zini erkin his qiladi va ta'lim jarayonida faol bo'ladi.



Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar keng qo'llaniladi. Interaktiv doskalar, raqamli

platformalar, vizual materiallar darsning ajralmas qismiga aylangan. Texnologiyalardan darsni mazmunli tashkil etishda yordamchi vosita sifatida foydalaniladi.

Koreyaga ta'lim safari menga shuni anglatdiki, haqiqiy ta'lim – faqat bilim berish emas, balki ilhomlantirishdir. Birgina safar davomida ko'rganlarim, o'rganganlarim va his qilganlarim minglab yangi g'oyalar tug'ilishiga sabab bo'ldi.





Masalan, matematika fanidan hisoblashni yoq-tirmaydigan o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirish maqsadida **"Pingvin uylarini topishga yordamlash"** nomli didaktik o'yin tayyorladim va bu o'yin o'quvchilar ishtiyoqini oshirganiga guvoh bo'ldim.



O'quvchilarning ona tili faniga qiziqishini oshirish, yaqin ma'noli so'zlarni topish ko'nikmasini shakllantirish, tez fikrlash va diqqatni rivojlantirish, so'z boyligini o'stirish maqsadida tashkil etilgan **"Ma'nodoshlar galaktikasi"** didaktik o'yini ham ularda katta qiziqish uyg'otdi. Unda o'qituvchi doskaga raketa rasmlarini joylashtiradi. Har bir ra-

ketada bitta so'z yozilgan bo'ladi(masalan, *quyosh, toza, ulkan, inson*). Kosmonavt rasmlari alohida qilib aralashtirib qo'yiladi. Ularda raketadagi so'zlar-ga yaqin ma'noli so'zlar yozilgan bo'ladi(masalan, *oftob, sof, katta, odam*). O'quvchilar navbat bilan doskaga chiqadi. Har bir o'quvchi raketadagi so'zni o'qiydi, kosmonavtlar orasidan unga yaqin ma'noli so'zni topadi, topilgan kosmonavtni mos raketa yo-niga joylashtiradi. Agar javob to'g'ri bo'lsa, raketa "uchadi", o'quvchi olqishlanadi. Agar xato bo'lsa, sinf bilan birga to'g'ri javob topiladi.

Jarayonni qiziqarli qilish uchun to'g'ri javob ber-gan o'quvchiga yulduzcha yoki rag'bat belgisi beri-ladi. O'yinni guruhlar bilan o'tkazish mumkin. Vaqt belgilanib, "eng tez topuvchi guruh" aniqlanadi.



Raqamli ta'lim – bu zamonaviy ta'limning ajralmas qismi. U o'quvchilarga yangi bilim olish imkoniyatlarini yaratadi, individual yondashuvni ta'minlaydi va texnologiyalar bilan uyg'unlash-gan kelajak ta'limi asosini tashkil

etadi. Shu maqsadda **educaplay.com** sayti yordami-da o'quv o'yinlari yaratdim va dars jarayonida qo'l-ladim.

1-sinf matematika fanlarida qo'llash uchun ushbu havola ustiga bosing (https://www.educaplay.com/learning-resources/26405826-1_sinf_matematika.html) yoki QR-kod yordamida ham ushbu havolaga kirishingiz mumkin.



1-sinf ona tili fanidan yaratil-gan ushbu o'yin o'quvchilarning darsga bo'lgan faolligini oshi-rishga katta xizmat qildi: (https://www.educaplay.com/learning-resources/26089614-r_harfli_so_zlar_o_rganish.html)

Koreyada o'yin bolalar uchun eng tabiiy o'rga-nish usuli deb qaraladi. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, bola o'yin jarayonida o'zini erkin his qiladi, faol qatnashadi va ma'lumotni oson qabul qiladi. Shu sabab, koreys pedagoglari o'yin orqali ta'lim berish-ni bolalar rivojlanishiga mos va samarali metod deb hisoblaydi.

An'anaviy darslarda o'quvchi ko'proq tinglovchi bo'lib qolsa, o'yin asosidagi darslarda u faol ishtirok-chiga aylanadi. Natijada o'quvchi bilimni majburan emas, qiziqib o'rganadi.

Surayyo MURODOVA,

Romitan tumanidagi

1-maktabning oliy toifali

boshlang'ich sinf o'qituvchisi,

o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari,

Xalq ta'limi a'lochisi

Huquqiy burchak

Mahalla orqali ijtimoiy huquqlarni ta'minlash: ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya



2026-yilning O'zbekistonda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi mahalla institutining davlat va jamiyat hayotidagi rolini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Mazkur yil nomi ramziy shior bo'libgina qolmay mahallani ijtimoiy huquqlarni amalga oshirishning bevosita va birlamchi maydoniga aylantirishni ko'zda tutadi. Bugungi sharoitda ijtimoiy huquqlar – ta'lim olish, sog'liqni saqlashdan foydalanish va ijtimoiy himoyaga ega bo'lish – faqat konstitutsiyaviy normalar darajasida qolmay, balki fuqarolarning kundalik hayotida real va sezilarli tarzda ta'minlanishi lozim. Shu ma'noda, ijtimoiy huquqlar "qog'ozda mavjud bo'lgan huquqlar" darajasidan chiqib, joylarda, ya'ni mahalla darajasida amalga oshiriladigan huquqlarga aylanishi zarur. Aynan mahalla aholining ehtiyojlarini eng yaqin va to'liq biladigan ijtimoiy makon sifatida davlatning ijtimoiy siyosatini amaliyotga tatbiq etish uchun muhim platforma hisoblanadi. Shuning uchun ham 2026-yil konsepsiyasi mahallani ijtimoiy huquqlarni ta'minlashning markaziy bo'g'ini sifatida qayta talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ta'lim olish, sog'liqni saqlashdan foydalanish va ijtimoiy ta'minot huquqlari kafolatlangan bo'lsa-da, ushbu huquqlarning amaliyotda ta'minlanishi doimo bir xil darajada emas. Ayniqsa, ularning mahalla darajasida amalga oshirilishi hududlar kesimida notekis bo'lib, bu holat ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillariga putur yetkazishi mumkin.

Mazkur maqola quyidagi asosiy tadqiqot savollariga javob topishga qaratilgan: ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarida mahalla faqat vositachi institut sifatida qolyaptimi yoki mustaqil huquqiy subyekt sifatida shakllanib boryaptimi? Ushbu savollar orqali mahallaning real huquqiy maqomi va uning ijtimoiy huquqlarni amalga oshirishdagi o'rni aniqlashtiriladi.

Maqolada ilgari surilayotgan asosiy gipotezaga ko'ra, mahalla instituti ijtimoiy huquqlarni ta'minlashda samarali bo'lishi uchun u faqat ijtimoiy yordamni yetkazib beruvchi vositachi sifatida emas, balki huquqiy jihatdan mustahkamlangan, aniq vakolatlariga ega va hisobdor subyekt sifatida qayta talqin qilinishi lozim. Aks holda, mahalla orqali amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat barqaror va teng huquqli natijalarga olib kelmashi mumkin. Mahalla instituti ijtimoiy huquqlarni ta'minlash tizimida davlat va fuqaro o'rtasidagi oraliq bo'g'in sifatida alohida o'rin egallaydi. Bir tomondan, mahalla davlat ijtimoiy siyosatini joylarda amalga oshirishga ko'maklashsa, ikkinchi tomondan, fuqarolarning ehtiyojlari va muammolarini davlat organlariga yetkazuvchi asosiy kanal vazifasini bajaradi. Shu bois, mahalla ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlovchi birlamchi platforma sifatida qaraladi.

Mazkur model "ijtimoiy huquqlarning yaqinlik prinsipi"(proximity principle)ga asoslanadi. Ushbu prinsipga ko'ra, ijtimoiy huquqlarni amalga oshirish imkon qadar fuqaroga eng yaqin bo'lgan darajada ta'minlanishi lozim. Mahalla aynan shunday daraja bo'lib, u aholining real holatini, ehtiyojlari va ijtimoiy zaiflik omillarini eng tez va aniq aniqlash imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, mahalla ijtimoiy huquqlarni ta'minlash tizimida passiv ijrochi emas, balki faol, tashabbuskor va huquqiy jihatdan aniqlashtirilgan subyekt sifatida shakllanishi zarur. Bu esa ijtimoiy huquqlarni faqat deklarativ darajada emas, balki amaliy va barqaror tarzda amalga oshirish uchun mustahkam asos yaratadi. Ta'lim olish huquqi ijtimoiy huquqlar tizimida markaziy o'rin tutib, inson shaxsining rivojlantirish va jamiyatning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir shaxsga ta'lim olish huquqini kafolatlangan bo'lsa-da, ushbu huquqning to'liq va samarali amalga oshirilishi ko'p jihatdan mahalla darajasidagi institutsional mexanizmlarga bog'liq. Mahalla bolalarning maktabga qamrovi, majburiy ta'limdan chetda qolish holatlarini aniqlash va bunday holatlarning oldini

olishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ijtimoiy jihatdan zaif oilalardagi bolalar, migratsiya holatidagi oilalar va xavf guruhiga kiruvchi voyaga yetmaganlar bilan ishlashda mahalla ta'lim muassasalari bilan bevosita hamkorlik qiladi. Bu esa ta'lim huquqining real hayotda amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyotda mahallaning ta'lim sohasidagi vakolatlari aniq huquqiy chegaralarga ega emas. Mahalla ko'pincha maslahat beruvchi yoki axborot yetkazuvchi rol bilan cheklanib qoladi, ba'zan esa huquqiy asos yetarli bo'lmagan holda aralashuvlar kuzatiladi. Bunday noaniqlik ta'lim huquqini ta'minlashda tizimli va barqaror yondashuvni shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Shu sabab mahallaning ta'lim sohasidagi vakolatlarini qonunchilik darajasida aniq belgilash zarurati mavjud.

Sog'liqni saqlash huquqi inson qadr-qimmati va yashash huquqi bilan uzviy bog'liq bo'lib, davlatning ijtimoiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu huquqni ta'minlashda mahalla aholi bilan eng yaqin aloqada bo'lgan institut sifatida profilaktika va birlamchi tibbiy xizmatlarni tashkil etishda muhim vositachi vazifasini bajaradi.

Mahalla surunkali kasalliklarga chalingan shaxslar, nogironligi bo'lgan fuqarolar, keksa va ehtiyojmand qatlam vakillarini aniqlash orqali sog'liqni saqlash tizimi uchun muhim axborot manbayi hisoblanadi. Bundan tashqari, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sanitariya-gigiyena masalalarida tushuntirish ishlarini olib borish ham mahallaning amaliy faoliyati doirasiga kiradi. Biroq mahallaning sog'liqni saqlash sohasidagi ishtiroki asosan tashkiliy va koordinatsion xarakterga ega bo'lib, uning huquqiy javobgarligi va qaror qabul qilish vakolatlari yetarli darajada aniqlashtirilmagan. Bu holat sog'liqni saqlash huquqining ta'minlanishida institutsional bo'shliqlarni yuzaga keltiradi. Shu bois, mahallaning sog'liqni saqlash sohasidagi rolini huquqiy jihatdan mustahkamlash va uning mas'uliyatini aniq belgilash dolzarb masala hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya huquqi aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida mahalla ijtimoiy himoya tizimining asosiy ijrochi bo'g'inlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. "Ijtimoiy daftarlari" tizimi orqali ehtiyojmand shaxslarni aniqlash, nafaqa va moddiy yordamlarni manzilli taqsimlashda mahalla bevosita ishtirok etadi. Ushbu tizim ijtimoiy yordamni aniq ehtiyojlarga moslashtirish imkonini bergan bo'lsa-da, ayni paytda subyektiv baholash va shaffoflik masalalarini ham yuzaga chiqarmoqda.

Huquqiy nuqtayi nazardan, mahalla tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning protsessual asoslari, shikoyat qilish va qayta ko'rib chiqish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmagani ijtimoiy himoya huquqining to'liq amalga oshirilishiga to'sqinlik

qilmoqda. Shu sabab mahalla faoliyatini ijtimoiy himoya sohasida huquqiy jihatdan tizimlashtirish, ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish zarur. Mahalla instituti ijtimoiy huquqlarni ta'minlashda tobora muhim rol o'ynayotgan bo'lsa-da, uning faoliyati huquqiy jihatdan to'liq va tizimli tartibga solinmagan. Amaldagi normativ-huquqiy baza mahallaga muayyan vakolatlar bergan bo'lsa-da, ushbu vakolatlarining aniq chegaralari, amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik tizimi yetarlicha aniqlashtirilmagan. Bu holat ijtimoiy huquqlarni ta'minlash jarayonida qator huquqiy bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda.

Birinchidan, vakolatlarining noaniqligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Mahalla ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarida faol ishtirok etayotgan bo'lsa-da, uning ushbu sohalaridagi huquqiy maqomi ko'pincha deklarativ xarakterga ega. Qonunchilikda mahallaning aniq qaysi holatlarda mustaqil qaror qabul qilishi, qaysi holatlarda esa faqat tavsiyaviy yoki koordinatsion rol bilan cheklanishi lozimligi aniq belgilanmagan. Natijada, hududlar kesimida mahalla faoliyatining turlicha talqin qilinishi va notekis amaliyot yuzaga kelmoqda.

Ikkinchidan, qaror qabul qilishning protsessual asoslari yetishmasligi muhim huquqiy bo'shliq hisoblanadi. Mahalla tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatish, ehtiyojmandlikni aniqlash yoki ma'lum toifalarga ustuvorlik berish kabi qarorlar qabul qilinadi. Biroq ushbu qarorlarning qabul qilinish tartibi, mezonlari va asoslan-tirilishi qonunchilikda yetarli darajada reglamentlashtirilmagan. Bu esa subyektivlik, tanlab yondashish va hatto diskriminatsiya xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchidan, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarining zaifligi mahalla faoliyatining huquqiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mahalla tomonidan qabul qilinadigan ko'plab qarorlar ochiq e'lon qilinmaydi yoki ularning huquqiy asoslari fuqarolar uchun tushunarli shaklda yetkazilmaydi. Fuqarolarning ushbu qarorlardan norozi bo'lishi holatlarida esa samarali eshituv, shikoyat qilish yoki apellyatsiya mexanizmlari yetarlicha rivojlanmagan.

To'rtinchidan, javobgarlik institutining noaniqligi alohida e'tibor talab qiladi. Mahalla ijtimoiy huquqlarni ta'minlash jarayonida faol ishtirok etar ekan, uning noto'g'ri yoki noqonuniy qarorlari natijasida huquqlar buzilgan taqdirda kim va qanday tartibda javobgar bo'lishi masalasi ochiq qolmoqda. Amaldagi qonunchilikda mahalla raisi va faollarining huquqiy javobgarligi umumiy normalar bilan cheklangan bo'lib, ijtimoiy huquqlar kontekstida aniq mexanizmlar mavjud emas.

Beshinchidan, fuqarolarning huquqiy xabardorligi pastligi ham huquqiy bo'shliqlarni chuqurlashtiruvchi omil hisoblanadi. Ko'plab fuqarolar mahalla orqali taqdim etiladigan ijtimoiy huquqlar, yordam turlari va ulardan foydalanish tartibi haqida yetarli ma'lumotga ega emas. Bu esa huquqlarning to'liq amalga oshirilishiga to'sqinlik qilib, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur huquqiy bo'shliqlar mahalla institutining ijtimoiy huquqlarni ta'minlashdagi salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Shuning uchun ham 2026-yil doirasida mahallaning huquqiy maqomini qayta ko'rib chiqish, uning vakolatlari, protsessual standartlari va javobgarlik mexanizmlarini aniqlashtirish ijtimoiy huquqlarni samarali va teng ta'minlash uchun muhim shart hisoblanadi.

Bo'lgan voqea

Tinchlik — naqadar
buyuk soʻz!

Buloqboshi tumanidagi 24-maktabda “Uch avlod uchrashuvi” tadbiri oʻtkazilayotgan edi. Tadbirga faxriy oʻqituvchilardan bir guruhi taklif qilingandi. Ustozlar oʻquvchilarga shu vaqtga qadar qanday yoʻllarni bosib oʻtgan yuzasidan birin-ketin qiziq voqealar soʻzlay boshladi. Ular orasida shu maktabda uzoq yillar ishlagan, ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi Qosimjon Yoqubov ham bor edi. Qosimjon maʼnaviy-maʼrifiy, oʻquv-tarbiyaviy ishlar boʻyicha direktor oʻrinbosari vazifasida ham faoliyat olib borgan. Soʻz navbati unga berildi.

Uni yaxshi taniyman. Fan olimpiadalarida oʻquvchilari doim yaxshi natijalarni qayd etib kelardi. Bir necha yil tuman, viloyat bilimlar bellashuvida hakamlar tarkibida oʻquvchilar bilimini xolis baholashga yordamlashgan. Qosimjon “Yil oʻqituvchisi” respublika koʻrik-tanlovining tuman bosqichida yuqori oʻrinlarni egallagan. Oʻz kasbiga fidoyi oʻqituvchilar qatorida yuqori tashkilotlar ragʻbatlariga bir necha bor sazovor boʻlgan. Maktablarda oʻtkazilayotgan koʻrgazmali seminarlarda tashabbus bilan chiqar, fanga doir yangiliklarni targʻib qilardi.

— Bolaligimdan mutolaaga qiziqqanman, — deb gap boshladi u. — Ulugʻ yozuvchi, adiblarning asarlarini koʻp oʻqiganman. Xayolimda asar qahramonlari bilan birga yashagan, ayrim qahramonlarga oʻxshashni orzu qilgan vaqtlarim koʻp boʻlgan. Maktab tahsili, soʻng universitetni tugatib, maktabda dars bera boshlaganimdan buyon ham kitoblarga boʻlgan qiziqishim meni tark etmadi. Boʻsh vaqtlarimda qoʻlimga qogʻoz-qalam olib, xotira yozish, muhim voqealarni qoralashni odat qilganman. Hatto bu odat harbiy xizmat davrida ham bir zum meni tark etmadi. Maktabda uzoq yillar dars berish bilan birga, oʻquvchilarga doim bir jumlani takrorlardim: “Tinchlik — ulugʻ neʼmat, uni qadrlang!” Bu soʻzlarni qayta-qayta takrorlashning oʻz sabablari bor edi... 1980-yili “Baynalmilalchi jangchilar” safida harbiy xizmatni Afgʻonistonda oʻtaydigan boʻldim. Nazarimda, harbiy xizmat biz yoshlar uchun sarguzashtlarga boy davr, jasoratlar koʻrsatishga imkoniyat yaratadigan payt edi. Afgʻonistonga xizmatga joʻnashimdan xabar topgan yuqonlarim bundan qattiq xavotirga tushishdi: “Axir urushga, olov ichiga boryapsan!” deyishdi. “Askarning butun hayoti sinovli boʻladi: och qolishing, sovuqda qolib ketishing mumkin. Oʻrindigʻing albatta partoʻshak boʻlmaydi, xizmat — huzur-halovatsiz, mashaqqatli kunlarga chidash, degani...”. Ota-onamning xizmat joyimni boshqasiga almashtirish uchun aytgan ogohlantirishlari foydasiz edi. Oʻz qarorimda qatʼiy turib oldim...

Afgʻonistonda oʻtgan xizmat davrim oson kechmadi. Bolaligimdan yondaftarcha tutib, unga esda qolarli xotira, qiziq voqealarni qayd qilib borishim haqida aytgandim. Xizmat davrimda ham yondaftarchaga nimalarnidir qoralashga vaqt topardim. Ammo bu yozuvlarning oldingi yozuvlardan farqi shunda ediki, daftarcha endi faqat qaygʻuli, iztirobga toʻla satrlar bilan toʻlardi. Bu satrlar koʻzyoshlar bilan bitilar, jangchi-asakarlarning fojiali kechmishlari, jangarilar bilan boʻlgan toʻqnashuvlarda halok boʻlgani aks etgandi. “Hayot — qanchalar goʻzal, yashash, salomat ekanligingning oʻzi buyuk neʼmat emasmi?!” Har jangga kirishganimizda ushbu soʻzlar xayolimga kelardi...

Xizmat davrim tugab, uyga qaytayapman. Toʻrt mucham sogʻ, biroq oʻzimda emasman. Kutib olishga yaqinlarim bilan birga butun mahalla chiqqan. Meni zoʻr qahramonlardek qarshi olishdi. Yuzlarim kuladi, biroq qalbm qorongʻi, janggohlarda halok boʻlgan safdoshlarim bir umr qalbmga muhrlangan...

Qosimjon shu yerga kelganda birdan gapirishdan toʻxtadi. Uning koʻzlariga yosh toʻlib, gapini davom ettirmay qoldi. U shunday berilib soʻzladiki, butun auditoriyadagi katta-kichikning vujudi quloqqa aylanib, unga tikilib qolgandi...

Umida EGAMBERDIYEVA,
Oʻzbekiston Jurnalistlar uyushmasi aʼzosi

Mulohaza

Tarbiya masalasiga koʻpincha yetarli eʼtibor bermaymiz. Aslida insonning butun hayotiy yoʻnalishi, maʼnaviyati, odobi, masʼuliyati aynan tarbiya orqali shakllanadi. Yosh avlodni vatanparvar, maʼnaviy yetuk, yuksak axloqiy fazilatlarga ega etib voyaga yetkazish — nafaqat oila, balki maktab, jamiyat, OAV va raqamli makonda faoliyat yuritayotgan har birimizning burchimizdir. Ayniqsa, internet olamida eshiklar ochiq boʻlgan bugungi sharoitda yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish, toʻgʻri yoʻl koʻrsatish nihoyatda muhim.

Sifatsiz maktablar soni
kamaymayapti...

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda taʼlim sohasida keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda:

- maktablar modernizatsiya qilinmoqda;
- oʻquv dasturlari qayta koʻrib chiqilmoqda;
- pedagoglar malakasi oshirilmoqda;
- raqamli taʼlim vositalari joriy etilmoqda.

Biroq har qanday islohotning haqiqiy samarasi uni amalda toʻgʻri qoʻllashga bogʻliq. Agar bugun bolalar qalbiga bilimga muhabbat, mehnatga hurmat, Vatanga sadoqat, insonparvarlik va masʼuliyat kabi fazilatlarni singdira olsak, ertaga jamiyatimiz yanada ravnaq topgan, maʼnaviy yetuk, taraqqiy-parvar avlod bilan boyiydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tomonidan 2025-yili eʼlon qilingan yangi roʻyxatga koʻra, respublikada jami 460 ta maktab “taʼlim sifati past” maktablar roʻyxatiga kiritilgan. Bu koʻrsatkichlar shuni anglatadiki, taʼlimda “rivojlanish” deb berilayotgan maʼlumotlarga qaramay, minglab oʻquvchilar sifatli taʼlimdan mahrum boʻlmoq-

da. Shuningdek, taʼlim muassasalari soni ham oshayapti: 2024-2025-oʻquv yilida umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari soni 10 943 taga yetdi — bu 1990-1991-yildagi 8 333 taga nisbatan sezilarli oʻsishdir. Ammo maktablar soni koʻpayganiga qaramay, sifatsiz maktablar roʻyxati kamaymayapti. Birida ititish tizimi muammo boʻlsa, boshqasida sovitish...

Agar bugun taʼlim sifati past maktablarni qayta koʻrib chiqib, ularni modernizatsiya qilmasak, barcha hududlarda — shahardan tortib chekka viloyatgacha taʼlim va tarbiyada teng imkoniyat yaratmasak, jamiyatning mustahkam poydevorini qoʻyib boʻlmaydi. Buning uchun soʻzlar emas, amaliy rejalar, real investitsiyalar va qatʼiy nazorat kerak. Jamiyat kelajagi bugun toʻgʻri taʼlim va qatʼiy tarbiyaga qoʻyilayotgan yuksak eʼtibordan boshlanadi.

Ma’suma MO’MINOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa fanlari doktori (PhD)

O'y

Ustozman — qalb ogʻrigʻim bor

Ustozman. Gohida qalb ogʻrigʻidan uyqum qochadi. Har kuni koʻrib, bilib, his qilib yuribman. Shu qalb jarohati bilan yashayapmiz, faoliyatimizni davom ettiryapmiz. Lekin tobora bitmas jarohatlar qaʼriga singib boryapman. 20 yildan buyon boshlangʻich sinfda dars beraman. Bunday ogʻriqlar boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida biroz kamroq, lekin yuqori sinf oʻquvchilarining ustoziga qilgan muomalasidan tirik jon borki, qalbi larzaga keladi. Oʻzbegimning odob, axloq, qadriyat degan tushunchalariga yana bir bor eshiklar qarsillatib yopilib, darz ketadi.

Axir Qurʼoni karimda ham ilm ahli haqida 379 ta oyat keltirilgan boʻlib, ularda bilimlilar bilan bilimsizlar barobar boʻlmasligi, ilm ahlini Olloh taolo yuqori darajalarga koʻtarib qoʻyganligi aytiladi. Olloh kimga yaxshilikni iroda qilsa, uni ilmga faqih qilib qoʻyadi. Ilmsiz kishi odobli va koʻrkam boʻlmaydi. Qurʼoni karimning muqaddas oyatlarida ilm ahli shu darajada eʼtirof etilgan ekan, nega jamiyatimiz yoshlari ustozni izzat-u ikrom qilmaydi? Nega ilm ahli talabgorlari ustozning haqlarini mukam-mal tarzda ado etish, roziligini olish, koʻnglida muhabbat pay-

do qilishga urinmaydilar? Noro-zi qilib qoʻyishdan, gʻazabidan saqlanishdan choʻchimaydilar?! Hazrati Ali roziyallohu anhu muallimning mutaʼllimdagi haqlari toʻgʻrisida quyidagilarni aytganlar: *“Qavmga umumiy salom berib, unga alohida salom berishing, uning qarshisida oʻtirishing, huzurida qoʻllaring ila ishora qilmasliging, koʻzingni undan boshqaga tikmasliging, uning gapiga xilof soʻz aytmasliging, uning qoqilishini istamasliging, agar yoʻldan toysa kechirishing, Olloh taalo uchun uni ulugʻlashing, uning majlisida biror kishi bilan soʻzlashmasliging, suhbatlari*

Feruza HOSHIMOVA,
Bekobod tumanidagi
48-maktabning boshlangʻich
sinf oʻqituvchisi



Ogʻriq

Kasbim psixolog boʻlganligi uchun doim oʻzim tushunganim qadar jamiyatdagi insonlarni kuzatib, tahlil qilib boraman. Odamlar nimani xohlaydi, nimadan qoʻrqadi, nimani tan olmaydi — bular jamiyat ruhiyatining oynasidir.

Orzu-niyat ortidagi
majburiyat

1980-yillarda Oʻzbekistonda oʻtkazilgan psixologik eksperimentda vatandoshlarimiz berilgan savollarga “qoʻshnim yoki doʻstim qanday javob berdi?” deya savolga savol bilan javob bergandi. Bu holat oʻsha vaqtda ham “Odamlar nima deydi?” fikri ongimizga oʻrnashib qolganini koʻrsatadi. Afsuski, bu stereotip qariyb yarim asr oʻtdi hamki hanuzgacha ongimizda yashab kelmoqda...

Hayot poygaga aylandi. Xotirjam, oddiy yashash eng qiyin masala boʻlib qoldi. Axir oddiy odamning orzusi katta emas — oʻz uyida tinch yashash, roʻzgʻorini eplash, farzandini qarzga botirmay ulgʻaytirish. Koʻpchiligimiz tongda ishga orzu bilan emas, olgan mashinamiz qarzi, qarzga oʻtkazgan toʻymiz, kreditga yetarmikan masoshim... kabi xavotirlar ogʻushida chiqamiz. Doimiy ish boʻlsa osoyishta yashayman deb oʻylaymiz, lekin yetishtira olmaymiz. Mana shu yerda muhojirlik boshlanadi.

Odamlarning oʻz vatanida qolishdan koʻra boshqa davlatni istashi — bu xavfli signal. Begona yurtda ishlab, oʻz yurti, oilasini sogʻinishi muhojirlarning kundalik azobidir. Hozirgi kunda oʻzbek ayollari ham muhojirlik azobini totayapti. Pul keladi, uy tiklanadi, toʻy oʻtadi, kredit yopiladi, ammo mehr tiklanmaydi. Eng ogʻir yoʻqotish pulda emas, tarbiyada yuzaga kelayotgan boʻshliqda. Bugun bolalar ota yo onasini telefonda taniyapti. Ular moddiy jihatdan yaxshidek tuyulsa-da, ruhiy tomondan yetim boʻlib qolmoqda.

Toʻgʻri, oilam, farzandim uchun yuribman deb oʻzimizni oqlaymiz. Biroq bolaga ham vaqt, eʼtibor, suhbat, nazorat kerak. Aks holda tarbiyaviy boʻshliqni koʻcha, telefon, begona taʼsirlar toʻldiradi. Bogʻcha 6-7 yoshdan, maktab 18 yoshdan keyin oʻzidan soqit qiladi. Mutlaq mustaqil hayotga kirib kelganda bola haqiqiy ota-ona tarbiyasini namoyon qiladi. Tan olish kerak, muhojirlik birdan yoʻqolmaydi. Lekin tarbiyada-gi boʻshliqni toʻldirish mumkin. Maktab, mahalla va oilaning aloqasini jonlantirish kerak. Muhojir oilalar farzandlariga alohida eʼtibor qilish jamiyatning ham masʼuliyatidir.

Menincha, oddiy odamning oddiy ehtiyoji — oilasi, bolalari yonida boʻlish. Agar tirikchilik orzularni tortib olayotgan boʻlsa, bu iqtisodiy emas, tarbiyaviy muammoni ham keltirib chiqarmoqda. Shuni unutmaslik kerak, jamiyat mavqeyi baland binolar bilan emas, toʻgʻri ulgʻaygan bolalar bilan oʻlchanadi.

Gʻolibjon YORIYEV,
Nurobod tumanidagi
29-maktab psixologi

Ekoloyiha

Kimyo fanidan dars beraman. Bugun oʻqituvchi faqat dars oʻtuvchi mutaxassis emas, balki jamiyat taraqqiyotiga hissa qoʻshuvchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor shaxs sifatida maydonga chiqmoqda. Mamlakatimizda taʼlim tizimida olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlar biz pedagoglardan ham zamon bilan hamnafas boʻlish, bilim va tajribani doimiy ravishda boyitib borishni talab etmoqda. Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda taʼlim sohasiga davlat siyosati darajasida eʼtibor qaratilayotgani har bir oʻqituvchini quvontiradi. Taʼlim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, yangi maktablar barpo etilmoqda, mavjudlari zamonaviy talablarga mos ravishda taʼmirlanmoqda.

Tashabbuskor oʻqituvchi
masʼuliyati

Kimyo fani oʻqituvchisi sifati-da fanlarni amaliyot bilan bogʻlab oʻqitish imkoniyatlari kengaya-yotganini alohida taʼkidlash joiz. Zamonaviy laboratoriya jihozlari, koʻrgazmali qurollar, raqamli texnologiyalar dars samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday sharoitlar oʻquvchilarda ilmiy fikrlash, tahlil qilish va mustaqil izlanish koʻnikmalarini shakllantirishga yordam bermoqda. Bugungi taʼlim islohotlarining markazida pedagog shaxsi turibdi.

Oddiy dars bilan cheklanib qolishni xohlamayman. Taʼlim sifati faqat sinf xonasida emas, balki turli loyihalar, tanlovlar, maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar orqali ham oshadi. Shu bois turli respublika va hududiy loyihalarda, fan olimpiadalar, tanlovlar va targʻibot tadbirlarida faol ishtirok etib kelaman. Alohida taʼkidlash joizki, maktabimizda amalga oshirilayotgan “Eko-School” loyihasi pedagogik faoliyatimda muhim oʻrin tutadi. Ushbu loyiha doirasida oʻquvchilar-da ekologik madaniyatni shakllanti-



rish, atrof-muhitga masʼuliyat bilan munosabatda boʻlish koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Kimyo fani bilan bevosita bogʻliq boʻlgan ekologik mavzularni amaliy mashgʻulotlar orqali tushuntirish, chiqindilarni qayta ishlash, suv va havo tozaligi, yashil hududlarni asrash kabi masalalar oʻquvchilar ongiga singdirilmoqda. “Eko-School” loyihasi doirasida maktab hududini obodonlashtirish, koʻchat oʻtqazish, ekologik aksiyalar, davra suhbatlari va targʻibot tadbirlari

oʻtkazilmoqda. Bu tadbirlar nafaqat oʻquvchilar, balki butun maktab jamoasining birlashib, umumiy maqsad sari harakat qilishiga xizmat qilmoqda. Bugun maktab — faqat bilim beriladigan maskan emas, balki shaxs tarbiyalanadigan, hayotga tayyorlanadigan muhim ijtimoiy institutdir. Shu bois oʻqituvchi doimiy izlanishda boʻlishi, tashabbus koʻrsatishi va jamiyatdagi oʻzgarishlarga moslashib borishi lozim.

Moʻtabar BOZOROVA,
Kitob tumanidagi ixtisoslashtirilgan
maktab-internatning
kimyo fani oʻqituvchisi

Bo'lgan voqea

“Kulturniy” xayriyachi

Bugun universitetda birga oʻqigan doʻstim kelin tushirib toʻy beryapti. Xabar — qamchi deganlaridek, chaqirilgan joydan qolmayin deb yoʻlga chiqdim. Koʻp oʻtmay Nukusga ham yetib keldim. Bekatda avtobus kutib, ikki yosh kelinchakning yoniga surilib oʻtirdim. Bir payt:

— Anavi “kulturniy” xayriyachi oʻqituvchidan ellik ming soʻm berib qutularmikanmiz, qachon qarasang tilanchilik qilgani qilgan, — dedi sariqdan kelgan kelinchak. Buni eshitib turgan ikkinchi kelinchak birdan tutaqib: — Nima, ellik ming?! Yaqinda emasmi tugʻilgan kuniga ellik mingdan yigʻib berganimiz. Unda ham oʻzi “Obroʻyim toʻkilmasin. Oʻqituvchilar, oʻquvchilarning tugʻilgan kuniga nima sovgʻa qildi?” deya soʻraydi” deb qoʻymaganidan keyin berdik.

— “Bir qumaloq bir qorin yogʻni chiritadi”, “Birning kasri mingga tegadi” deganlaridek oramizda shunday nafsini tiyolmagan oʻqituvchilar bor. — Men ham beixti-

yor ularning gapiga aralashib ketganimni bilmay qolibman.

“Bunday tilanchilar obroʻmizni toʻkadi, hech kim oʻqituvchidan soʻramaydi tugʻilgan kuniga oʻquvchilari qanday sovgʻa berganini, oʻziga oʻxshagan xayr-ehson qiluvchi soʻramasa, bizlar nima sovgʻa bergani bilan qiziqmaymiz, axir men ham oʻqituvchiman”, deb aytib qoʻyibman.

Ikki yosh kelinchak biroq bir-biriga qarab kulishib oldi. Tezda oʻzlariga kelib: “Voy, opa, koʻnglingizga tekkan boʻlsak, bizlarni kechiring”, dedi uyalib. Shuning orasida avtobus kelib, ular shosha-pisha oʻshanga chiqib ketdi.

Men boʻlsam aqlim hayron, oʻtirgan joyimda oʻtiraveribman. Axir hozirgina eshitgan gaplar hali qulogʻim tagida jonlanar edi. Muallim degan ulugʻ nomga qora dogʻ sachratib yurgan kimsalarga gʻazabim qaynab, qattiq nafratlanam. “Aqlli odam nafsini tiyib yuradi, faqat ahmoqlar nafsining quli boʻlib yuradi” degan oʻylar xayolimdan oʻtdi.

Oynagul BAYMURATOVA,
Qaraoʻzak tumanidagi
31-maktab oʻqituvchisi

Asr muammosi

Ertaning zamonaviy kishisini qanday tarbiyalaymiz?



Tanlov, imkoniyat ko'paygani sari yanada qulaylikni istash inson tabiatiga xos. Bugun atrofga bir qur nazar tashlasak, fan-texnika yutuqlari bizning istaklarimizga "ochil dasturxon" tutayotgandek. Bir vaqtlar ertaklarning fantastik qiymatini belgilagan "oyinayi jahon", "uchargilam", "Sim-sim, ochil"lar bugun hayotimizga bus-butun ko'chgan.

Dunyoning ilg'or olimlari inson miyasiga chip qo'yish, Marsda yashash ustida tadqiqotlar olib boryapti. Demak, hatto 50 yil avvalgi hayotga nisbatan hozir qarash, o'lchamlar o'zgardi. Yer shari avvalgidan tez aylanayotgani haqida bot-bot axborot qabul qilib turibmiz. Go'yo ki bir asr, qo'yingki, 20 yil avvalgi inson bilan bugungi zamonaviy shaxsdan talab qilinadigan malakalar boshqa-boshqadek. Uning shaxslik pozitsiyalari o'zgar-gandek. Xo'sh, bugunning, ertaning zamonaviy kishisini tarbiyalashda nimalarga ahamiyat berishimiz kerak?

Borliqdagi eng uzoq muddatli investitsiya bu insondir. Yashashga yondashuv o'zgargandek ko'ringani bilan, inson sifatidagi burch, e'tiqod, mas'uliyat o'zgarmaydi. Inson tarbiyasida mehnat, sport va tabiat qadriyat sifatida asrlar oshib keladi, botin hamon shunday qolgan. Inson kamolida sport va tabiatning o'rni uyg'un olib borilsa bugun ham "investitsiya"mizda yutqazmaymiz. Ayniqsa, bugungi gajetlar zamonida.

O'quvchilik bosqichi eng muhim bo'g'in. Shu bosqichda sarmoyani jiddiyroq kiritish kerak. Bugun bolani asosiy maqsadlardan chalg'itadigan vositalar ko'payib ketgan. Gajetlar, internet o'yinlari – bu ummonga bir g'arq

bo'lgan o'quvchi oltinga teng vaqtiga qo'shib, yana ko'p narsalarini boy berishi tabiiy. Fe'l-atvorida jizzakilik, diqqatni jamlay olmaslik, loqaydlik, maqsadsizlik kabi yoqimsiz yuklar paydo bo'ladi. Axborot xuruji zamonida bu kabi ko'ngilsizliklarning oldini olish, o'ziga himoya devorini yaratishi uchun bolada immunitet shakllantirish darkor. Buni esa faqat kitob o'qib, bilim bilan-gina shakllantirib bo'lmaydi.

Sport va tabiat uyg'unligida tarbiyalangan bola jismonan sog'lom, ruhan barqaror, axloqan to'g'ri shakllanib, chiniqib maydonga chiqadi. Bu ikki omil bolaning nafaqat tanasi, balki ichki dunyosini ham tarbiyalaydi. Sport tanaga, tabiat qalbga rassomlik qiladi. Salomatlikni saqlash va yaxshilash tug'ilgandan boshlab har qaysi organizmning kundalik mashaqqatli "burchi" hisoblana-di. Ilmiy jihatdan asoslangan va to'g'ri tashkil qilingan jismoniy tarbiya o'sib kelayotgan yosh organizmga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, "jismoniy va ruhiy rivojlanishga imkon beradi, harakat imkoniyatlarini kengaytiradi, himoya moslashuv reaksiyalarini oshiradi va organizmning tashqi noqulay omillar ta'sirlariga chidamliligini kuchaytiradi, quvnoqlik hamda tetiklik bag'ishlaydi,

vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalaydi", deya ta'rif beriladi.

Darhaqiqat, sport – intizom va irodaning maktabi desak mubolag'a bo'lmas. Sport o'quvchini intizomli bo'lish, maqsad qo'ya bilish, qiyinchilikka chidash, yutish va yutqazishdan xulosa chiqarishga o'rgatadi. Jamoaviy sport turlari esa mas'uliyat, o'zgalar hayotiga ham daxldorlik, o'zaro hurmat, fidoyilik kabi fazilatlarini shakllantiradi. Bolaning ichki barqarorligini ta'minlaydi. Tezkorlik, erkin qaror qabul qilish, kerak joyda tavakkal qila olish, o'ziga ishonch, faollik va oldiga qo'ygan maqsadga intilish kabi jur'at bilan bog'liq ichki hududlarni kengaytiradi. Qolaversa, sport faqatgina mushaklarni emas, aqlni ham tarbiyalaydi, chiniqtiradi. Shuningdek, bola vujudida halollik, mardlik, olijanoblik, qoidalariga rioya qilish, o'zgalarga hurmat kabi inson tiynatining xazinasi bo'lgan xislatlarni ulg'aytiradi. Eng muhimi esa, bola sport orqali hayot qonunini o'rganadi: harakat qilmasang, natija bo'lmaydi.

Tabiat esa har bir bola uchun birinchi ustozdir. Kitob o'qish, qoida bilishdan oldin bola tabiatni kuzatish orqali qanchadir miqdorda hayotni anglab boradi. Shuning uchun tabiat bola tarbiyasida ruhiy-ma'naviy asos vazifasini bajaradi. Tabiat bilan muloqot boladagi bag'rikenglik, beg'uborlik, ichki osoyishtalik, ijodkorlikka rag'bat(motivatsiya) beradi. Mehr-shafqat, his-tuyg'u muvozanati, botiniy tartibni rivojlantiradi. Tabiat esa ruhiy tarbiya manbayi. Ta-

biatni his qilib ulg'aygan bola shafqatli, sabrli, kuzatuvchan, hayot, mehnatning qadri, mazmunini biladigan, javobgarlik hissi tanish bo'lib ulg'ayadi. Tabiat, shuningdek, bola qalbida ma'naviyatni uyg'otadi. Bugunning fuqarosi – ma'naviyat nimaligini his qilishi, belgilab olishi muhim omil. O'z vazifasini, ya'ni (masalan, o'quvchi sidqidildan o'qishi) o'z burchini anglagan holda ado etishi texnika zamoni odaminin ma'naviyatidir.

Sport va tabiat – tarbiyadagi kompleks kuch. Ular bugun bolaning sog'ligini mustahkamlaydi, axborot urushi zamonida stressini kamaytiradi, shorts, reelslar bo'laklab olayotgan diqqat va xotirasini oshiradi, odobsizlik, qo'pollik "alohida kuch" bo'lib ko'rinayotgan vaqtda xulq-atvori, loqayd tafakkurini ijtimoiy faollikka safarbar etadi.

Sport va tabiat hamohangligida tarbiyalanayotgan bola ruhan barkamol, jis-man sog'lom – kelajakning mukammal insoni bo'lib ulg'ayadi. Muhtaram yurt-boshimiz bugungi islohotlarning asosiy natija, samarasini oltin fond – yoshlarga qaratayotgani bejiz emas. Bugun jahon maydonida har tomonlama xatarlarga immuniteti yuqori kelajak egalarini jangovar askarlardek tarbiyalash har bir jamiyatning maqsadi va vazifasidir. Bu jarayonda ayniqsa ota-onalar va ustozlarning mas'uliyati tobora ortib bormoqda.

Mastona YO'LDOSHEVA,
Sho'rchi tumanidagi
46-maktabning oliy toifali boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Zamondosh

Fidoyi va izlanuvchan tarbiyachi



Hozirgi globalashuv va ta'lim sohasidagi o'zgarishlar sharoitida maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlardan yuqori kasbiy mahorat, ilmiy-tahliliy fikrlash va innovatsion yondashuv talab etiladi. Ayniqsa, ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil qila oladigan, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirgan yosh pedagoglar tizim taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday pedagoglar qatorida izlanuvchan tarbiyachi Saida Yunusaliyevaning faoliyati alohida e'tiborga loyiq.

Yangihayot tumanidagi 121-maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasi Saida Yunusaliyevani mehribon va fidoyi tarbiyachilardan biri deb baholaydi. U hozir oliy ta'lim muassasasida ta'lim olish bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotida ham samarali mehnat qilib kelmoqda. Saida 1988-yili Toshkentda tug'ilgan bo'lib, ko'p yillik fidokorona mehnati, kasbiga bo'lgan mehri va yangicha yondashuvi tufayli yuqori natijalarga erishmoqda.

Uning faoliyati pedagogik jarayonni ilmiy yondashuv asosida tashkil etish, bolalar rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olish hamda tarbiya jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish bilan



xarakterlanadi. Saida ish faoliyati davomida "Eng namunali tarbiyachi", "Yilning eng yaxshi pedagogi" sifatida e'tirof etilgan. U respublika miqyosidagi seminar-treninglarda muntazam ishtirok etadi. Shuningdek, "Bolajon" telekanali orqali bolalar tarbiyasi va ularga bilim berish bo'yicha o'z tajribasini bo'lishib kelmoqda.

Saida Yunusaliyeva mashg'ulotlarida kuzatuv, taqqoslash, tahlil va umumlashtirish kabi pedagogik tadqiqot metodlaridan samarali foydalanadi. U bolalarning bilim olish faolligini aniqlashda tizimli kuzatuvlar olib borib, mashg'ulotlar boshi va yakunida monitoring natijalari orqali bolalarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi o'zgarishlarni tahlil qiladi.



O'yinli va interaktiv metodlardan samarali foydalangani bois bolalarda nutq rivoji, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlash ko'nikmalari ham oshib bormoqda. Qolaversa, Saidaning guruhidagi tarbiyalanuvchilarning maktabga tayyorgarlik darajasi yuqoriligi hamkasblarida qiziqish uyg'otib, ular ham ushbu usullarni qo'llashga intilmoqdalar. Uning ishtirokida o'tkazilgan ochiq mashg'ulotlar va metodik muhokamalar esa maktabgacha ta'lim muassasasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishda amaliy ahamiyatga ega. Bu jarayonda Saida Yunusaliyeva nafaqat ijrochi, balki ilmiy-uslubiy g'oyalar taklif etuvchi faol pedagog sifatida ham o'zini ko'rsata oldi.

Ilmga bo'lgan qiziqishi sababli Saida pedagogika va maktabgacha ta'lim sohasidagi ilmiy adabiyotlarni muntazam o'rganib boradi. Uning ilmiy qiziqishlari maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, tarbiya jarayonida oila va ta'lim muassasasi hamkorligini takomillashtirish masalalariga qaratilgan.

Shuningdek, pedagog shaxsiy hayotida ham mas'uliyatni ustuvor qo'yadi. U oilaviy munosabatlarda o'zaro hurmat, qo'llab-quvvatlash va hamjihatlikni muhim deb bilib, bu omillarni bolalar tarbiyasida ham asosiy qadriyat sifatida ko'radi. Oiladagi ijobiy muhit uning kasbiy o'sishi va ilmiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Saida Yunusaliyeva ota-onalar bilan hamkorlikni ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi deb biladi. Ota-onalar bilan muntazam muloqot olib borib, bolalarning rivojlanish xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlari haqida maslahatlar beradi. Olib borilayotgan bunday hamkorlik ishlari natijasida oila va ta'lim muassasasi o'rtasida o'zaro ishonch va hamjihatlik muhiti shakllanib, bolalarning har tomonlama barkamol rivojlani-shiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mashhura VORISOVA,
jurnalist

Taassurot

“Machaylik yigit” portretiga chizgilar



Pavel Benkov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktabiga bordim. Ikkinchi qavatga chiqdim. Erkin Orol kartinalari osilgan muhtasham koshona. Tashqari... dunyo ranglari shu koshonaga qamalgan. Suratlarni tomosha qilarkanman, chetroqda osilgan bir portret e'tiborimni tortdi. Uning yonida uzoq qoldim. Portretidagi ranglar yurakda kechadigan bir “zarb” bilan palitrada aralashtirilgan va matoga chaplangandek.

Rassom dunyo ranglarining egasidir. O'zi barcha ranglarning shohi ekanligini biladi. O'zi istagan rangni faqat rassom topa oladi. Seldek quyulib kelgan ilhom bilan chizilgan bu surat. Uni tomosha qila turib, kimlarningdir suhbatiga chalg'idim, ketdim. Zinadan tushayotib yana ortimga qaytdim. Boya suratning nomiga e'tibor bermagandim. Borib qayta qaradim. O'qidim: “Machaylik yigit”. Bu yerda portretlar ko'p edi. “Ona”, “Sevara Nazarxon”, “Botir Zokirov”... Biroq qoyalar sukuti, tog'larning bardoshi va rangi ko'chgan bu portret bilan boshqasini solishtira olmadim. Asosiy urg'u yuz va nigohlariga berilgan... Bu yigitning tog'lik ekanini fondagi qishloq manzarasi emas, uning o'zi aytib turibdi. Orqa tasvirda yorqin va issiq ranglardan foydalanilgan. Ehtimol, issiqning avjida chizgandir rassom, yo o'sha ranglarni yaxshi ko'rar, bu muhim emas. Muhimi buyuk tog'larning metin irodasini inson yelkasiga mindira olganidadir. Ranglardagi soyadan ma'lumki, quyosh, tog'lar... bari orqada qolgan. Odam quyoshni ham, qishloqni ham, tog'larni ham to'sib turibdi. Portretni ko'rib beixtiyor xayolingga Omon Matjonning “Odamning soyasi quyoshga tushdi” degan satri keladi. O'sha satrning chizilgan surati edi bu. O'sha o'lmas satrday o'lmas bir rasm qarshisida edim.

Kartina seni o'ylashga majbur qiladi. Rassom bu asarni qachon, qanday, qay holatda chizgan?.. Bari senga qorong'u. Biroq xayollaring bu kartina yaralishi jarayonidan bugun shu joyga osilguncha bo'lgan “masofa”ga chalg'iydi. Machay haqida bilganlaring ko'z oldingdan o'tadi, yozganlaring yodingga keladi. Ochiq chehrali, qo'ng'iroq yuz, cho'qqisoqol va kal rassomning “shoir, kam-kam iching”, deb qadah tutgancha senga tirjayib qarashigacha ko'z oldingda jonlanadi.

Rassom surxondaryolik. U barcha qurollarini – etyudnik, molbert, bo'yoqlar, mo'yqalam, suv, non, namlatga – safarga nima kerak bo'lsa barini moshinga ortib o'zi tug'ilib o'sgan adirlar tomon yo'lga tushgan. Jomda ko'zi pinakka ketgandir, Dehqonobodda yo'l yoqasidagi cho'pon itlariga ko'zi tushgandir, moshinning ovozi va yo'lning charchog'i toliqtirgandir, ehtimol. Surxondaryoga kirgach o'zi ungan dashtlarga yetmasdan rulni Boysun qishloqlariga borgan – Machayga!

“Darband” postidan o'tib chapga qayrilsa, Machayga boriladi. Bu tog'lar oralab Boysunning turfa qishloqlari – Sayrob, Kofrun, Darband, Machay, Kengdala, Omonxona, Xo'jabulg'on, To'da, Avlod, Qo'rg'oncha... yoyilgan. Tog' yonbag'ri va qiya tepaliklarda chashmalar, tandir kabobga tot beradigan yovvoyi archalar... Bir tomoni Hisor, bir tomoni Pomirga tutashib ketgan qadimiy tog'lar.

Bu yerlarda ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlab odamlar yashagan. Hozir qurib qolgan ba'zi soylarning o'rnida qadimda pishqirib suv oqqan. Boysuntog' etaklarini alohida daralar yorib turadi, bu daralardan suv enadi – hayot enadi. Bu yerning xalqi toshlardan tozalab tomorqa qilib olgan yerlarini “hayot” deb atashadi. Hayot! Aholi asosan chorvachilik, qisman dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanadi. Ko'pgina gazalarda lalmi dehqonchilik... Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan Boysun bekligi sovetlar davrida tuman sifatida ro'yxatdan o'tdi va aholisidan ishchi kuchi sifatida foydalalanishdi.

“Machaylik yigit” portretida mashaqqatli mehnatning, og'ir sinovlarning ko'rinishi berilgan. Boysun aslida beklik edi! Unda bek yigitning kuldek ishlashi ifoda etilgan. Erkin Orol “Bo'z bozor”dagi ustaxonada emas, bu aziz tuproqlarda toza havodan to'yib nafas oladi. So'ngra esa atrofini kuzata boshlaydi. Ranglar jilosli. Tangrining mo'jizasi. Qarab ko'z to'ymaydi. Lahzalik va abadiy umrlar... Osmonning yaqinligini eng baland qavatdagi uyda emas, shu tog'larda ko'radi. Osmonning chegarasini shu tog'larda ko'radi. Yulduzlarning yaqinligini shu tog'larda ko'radi. “Machaylik yigit” ham yulduzlarning yaqinligini shu tog'larda ko'rgan...

Rassom bu tog'larga qushdek qo'nib do'kon dastgohini joylashtirguncha kun botgan bo'ladi, ehtimol. Yarim tun – yulduzlar ravshan, cho'qqilar osmonga tutashgan; osmonning chegarasi cho'qqilar boshida. Kunduzi cho'qqilarga chiqsang, bulutlar sendan ancha pastda pag'a-pag'a suzib yuradi. Bu so'lim, qaysar va injiq, sabrli qishloq rassomni hayratlar dunyosiga olib ketadi. Purviqor tog'lar ichida joylashgan bu qishloqqa, bu hayratlar dunyosiga, tabiatning bu go'zalliklariga rassom chin oshiq bo'ladi. Machay tabiati, odamlari, yashash tarzi boshqa qishloqlardan farq qiladi. Bu farqni sezgan rassom oldinga yuradi, Machayning yuragiga qadalgan ilondek buralib ketgan olis yo'li! Darbanddan Machaygacha bo'lgan dara oralagan bu yo'lni bosib o'tmaganlar his etmaydi. Machaydaryoning Darband tomon o'rmalagan muzdek oqimida toshlarga toyinib, sirpanib bolalar cho'miladi. Xo'jamayxonotaga yetib, ehtimol, rassom bir kosa buloq suvidan ichgandir. Keyin esa Past Machay, O'rta Machay, Yuqori Machay...

Vatan ichra har xil tuproq bor: bo'z tuproq, qora tuproq, sariq tuproq... Machayning tuprog'i esa qip-qizil, alvon! Botayotgan shafaq rangida yo o'tayotgan ufq rangida... Rassomga ertasi kun tabiat tomoshasi... yo tandirxo'rlik... Chunki yo'ldan charchab kelgan bo'ladi. U dam olishga hozirlik ko'radi. Ehtimol,



Machayga qarab ertaga o'rmalar... Qishloq ahli kecha-kunduz mehnatda... Tongdan cho'ponlar xurjunlarini to'latib yuqorilab ketadi. Yuqorida Qizilnahr, Toqchi ataladigan qishloqlar... Chetanlar, otarlar yuqorida. Yuqorida cho'ponlarning yakam-dukkam o'tovi... Undan balandda ovchilarning o'tovi.

Dengiz sathidan ikki-uch ming metr balandlikda joylashgan u joylarda ham olam barqarorligini ta'minlaydigan suv bor, ag'dariladigan tuproq bor, non yeydigan odamlar yashaydi. Faqat moshin borolmaydi, ot yiqilmasa yetib boradi, eshaklar bora oladi. Yer haydash uchun traktor borolmaydi, omochlar yasaladi. Asrlar o'zgarishi farq qilmaydi. Beshinchi asrda ham o'sha joylarda ov qilinib, olovda go'sht toblab yeyilgan, yigirma birinchi asrda ham shunday. U joylarga Boysun hokimi bormaydi. Qo'nsa, qanoti bor burgut qo'nadi, varragi bor parparak qo'nadi. Yuqorida eshitma, ko'rsatma, tilpon, qo'lpon o'z ahamiyatini yo'qotadi. Tog'ning u tomoni Uzun, Sariosiyo, Denov... O'ng tomon Afg'oniston, chap tomon Tojikiston. Tog'ni yorib balandlab ketgan toshli yo'l. “Villis” rusumli moshinda chiqa oladigan joygacha chiqiladi. Keyin otda, so'qmoqlardan balandlab ketiladi. Bu yo'llarni “Machaylik yigit” necha yuz bor, ehtimol ming bor bosib o'tgan. Har bir cho'ponning o'nlab bo'ribosar itlari bor bu yerlarda. Cho'ponning ayoli shu itlar uchun alohida kuniga ikki tandir non yopsa, cho'pon shu itlar uchun haftasiga bitta qo'y so'ysa, ne ajab?! “Machaylik yigit”ga bu itlar tashlanmaydi, begonaga tashlanadi. Bu el Machay qishlog'idan tashqari jami joylarni o'z didiga moslab gapiradi. “Boysunga tushib chiqdingmi?” demaydi. “Pastga tushib chiqdingmi?” deydi. “Toshkentdan kelyapsanmi?” deb so'ramaydi. “Pastdan kelyapsanmi?” deb so'raydi. Bu tog'larda baland shaharlar ham past bo'lib ko'rinadi. Bu balandliklardan yanada balandlab ketishga birgina “Machaylik yigit”ning yuragi dov beradi.

Balandlikdan insonning tushgisi kelmaydi, ammo tog' taxtga o'xshamaydi, ehtiyot bo'lsang qaytib tusha olasan. Taxtdan esa tushib bo'lmaydi, yiqilish mumkin. Yo taxtni quchoqlab o'lish mumkin. Tog'ni quchoqlab o'lib bo'lmaydi. Tog' seni quchoqlaydi. Machayning “Shar-shar” degan sharsharasi bor. Machaylik yigit bu shalolaga necha bor yuz chaygan, toshda pishgan suvdan ichib, nondan yeb jismi ham pishgan.

Pastda issiqlik qirq darajadan yuqori bo'lsa-da, bu yerda chopon-u po'stinlarni ilib olasan. Machaylik yigit esa shu sharsharada yuviniib ulg'aygan.

Balandligi taxminan yuz quloch yerdan suv biror qoya yo toshga urilmay tik tushadi. Toshga urilgan suv qaytib ellik-yuz quloch uzoqlikka sachraydi. Supadek tosh yemirilgan. Uning ostiga borib bo'lmaydi. Insonni mayib qiladi. Tik va bosim orqali tushadigan suv qo'l tutsang bilagingni sindiradi. Undan taralgan muzdek nam havo yanada qunishtiradi. Biroq “Machaylik yigit” bu sharshara ostiga bora oladi. So'ng esa baland-baland cho'qqilar, qoyalar osha ildam ketadi.

Insonlarning yovuzligidan, vahshiy qadamlaridan qochib bu yerlarda pusib yashayotgan yovvoyi jonivorlar ko'p. Ba'zan ilon vishillar, ba'zan oyog'i ostidan kaklik pir etib uchib ketar... U esa ildamlaydi, “Yo'lbarsuvdara”ga archazorni aylanib o'tadi, ayiqlar tushib kelgan bo'lishi mumkin... Ko'zi qobonning iziga tushadi. Yomg'ir bulutlari esa bu cho'qqilarda doim bor. “Machaylik yigit”dan ancha pastda yig'ilib qolgan, pag'a-pag'a quyuqlashgan bug'lar. Hayratlar dunyosi... Oyoq ostida qolgan bulutlarni faqatgina u miriqib tomosha qila oladi.

Yana olg'a yuradi. Oldinda esa qorlar... Odam bo'yi qor gupchaklari boshlanadi. Qoyalarning kunga ters betlarida abadiy erimaydigan qorlar... Vahimali, qudratli, shu bilan birga go'zal cho'qqilar... Hayratlar dunyosi ichra u o'zini Parvardigorga yaqinlashgandek his qiladi. Pastga qarab bo'lmaydi ham... Faqat, tirmashayotgan qoyaga yuz bosib borish mumkin. Past esa tubsiz... Bosh aylanadi. Bu yerdan o'tishda arqon ham ish bermaydi, qo'l uzatsa do'st ham. Yurak kerak bo'ladi. “Machaylik yigit”ning yuragi kerak bo'ladi. Salga qo'porilib ketadigan qotgan qorlarni ushlab o'tish uchun barmoqlari his etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak, oyoqlari muzda sal toysa tamom... Har qadamida sezgi kerak. Kimningdir etagiga tirmashsa uni ham o'lim qa'riga olib ketishi hech gap emas. O'lim bilan hayot orasidagi eng qisqa masofalarni u ko'rib ulg'aygan.

Qorlardan o'tib biror cho'qqi ustiga chiqqach, ko'zlari quvonchdan mamnun jilmayadi. Bu yergacha qancha qoyadan o'tib kelganini, hali manzilga yetib borguncha qancha qoyadan o'tishini bir dam o'ylaydi va yana yo'lga tushadi.

(Davomi 16-betda.)



Yaxshilar yodi

“MA’RIFAT” – HAR BIR USTOZNING MEHNATIDA YASHAYDI



Fevral. Qishloqda o'tgan kezarim, onamning qiyinchiliklari, xullas ichimdan o'tgan barcha kechinmalarimni qog'ozga tushirdim-u, tahririyat tomon yugurdim. Maqolamni topshirishga topshirdim, lekin chiqishidan umidim yo'q edi. “Boshlang'ich ta'lim” jurnalida musahhih bo'lib endigina ish boshlagan paytlarim edi. Bir kuni “Ma'rifat” gazetasi bosh muharriri Husan Nishonov kelib, “Yaxshi maqola yozibsiz, shu sonda chiqdi” deb qo'limni siqib tabriklab ketishi oddiy talaba uchun katta e'tirof va bu sohaga chuqurroq kirishimga turtki bo'lgandi.



“Boshlang'ich ta'lim” jurnaliga ishga kirishimda ham jurnal bosh muharriri Halim Saidovning bildirgan ishonchi kuch bergandi. “Ma'rifat” gazetasiga Husan Nishonovdan avval Abdusamad Rahimov, Halim Saidov, undan oldin 1992–1996-yillari Sa'dulla Hakimov, 1988–1992-yillari Ahmadjon Dolimov, 1964–1986-yillari esa Shahob Maqsudov bosh muharrirlik qilgan. Gazetaning yildan yilga rivoj topishi, hozirgi davrgacha faoliyat yuritib kelayotganida har bir bosh muharrirning hissasi, roli katta. Jumladan, Shahob Maqsudovning ham.

Shahob Maqsudov 1930-yil 12-dekabrda Qibray tumanidagi O'nqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Shu qishloqdagi 30-maktabni 1947-yili tamomlaydi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil olish bilan birga, Respublika radioeshittirish qo'mitasida diktorklik qildi. Institutni bitirgandan so'ng, avval qishlog'idagi 33-, keyinchalik 44-maktablarda ish faoliyatini davom ettirdi. Asli pedagog Shahob Maqsudov 1954-yildan boshlab “O'qituvchilar gazetasi” tahririyatida adabiy xodim bo'lib ish boshlaydi va bosh muharrirlik lavozimigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi.

– Dadam hayoti va ijodini gazeta va o'qituvchilar foydasi uchun bag'ishladi va men bundan faxrlanaman, – deydi qizi Arofat Maqsudova. – Bir gazetada 33 yil ishlash butun umrini shu gazeta bag'ishlash degani. Dadamning gazetada ishlagan yillari siyosiy qiyin davrlarga tog'ri keldi. 80-yillarga kelib unga nisbatan turli fitnalar uyushtirishga uringanlar ham bo'ldi. Muharrirlikning so'nggi yillari bir qator gazeta muharrirlarini Moskvaga yig'ilishga chaqirishdi. Majlisda qatnashgan jurnalistlarning aytishicha, o'sha kuni boshqa nashrlar bilan bir qatorda “O'qituvchilar gazetasi” ham qattiq tanqid ostiga olingan. Hayotining mazmuniga aylangan gazetani arzimagan narsalarni ro'kach qilib, keraksiz qog'ozga chiqarishganini ko'tarolmadi. Moskvadan qaytib kelganining ertasi kuni qattiq yurak xuruji o'tkazib, shu bilan qayta oyoqqa turmadi. Ko'p o'tmay olamdan o'tdi. Shukurki, men, singillarim Latofat, Fazilat, Ziyoda va ukam Muhiddin ham o'qituvchilik kasbini tanlab, ta'lim-tarbiya sohasida faoliyat yuritib kelmoqdamiz.

Ustoz haqida gap ketar ekan, zamondoshlari uning muharrirlik yillarida gazetaning mavzu ko'lami boyib, mushitariylarning e'tibori oshganini eslashadi. Unda xalq ta'limining dolzarb masalalari ko'tarilgani, pedagog, tarbiyachi, maktab o'qituvchilarining ilg'or ish tajribalari izchil yoritilganini ta'kidlashadi.

Pedagog-jurnalist Jafar Ma'rupov o'zining “Sadoqat” sarlavhali maqolasida Shahob Maqsudovni shunday eslaydi:

“U davrda men muharririyatning yirik sohasi – maktablar bo'limini boshqarardim, tahrir hay'ati a'zosi edim. Ma'muriyat diktorg yigitchani mening qo'limga topshirdi. Gazetada birga xizmat qilgan yillar, jamoada yuz bergan qiyinchiliklar, muvaffaqiyatlarga erishilgan ijodiy hayot Shahob Maqsudov faoliyatiga qanchalik naf keltirganligi sir emas. Menga uning ma'qul tushganligi tabiatan yumshoqligi, maktab va pedagogik hayotni teran idrok etishi, muhimi, jurnalistlikka moyilligi bo'ldi. Ana shu fazilat, o'z ustida muttasil ishlash tufayli gazetaning bo'lim mudirligi, keyin esa mas'ul kotibi lavozimlariga ko'tarildi...”

...Uning gazeta bosh muharrir o'rinbosari, ko'p o'tmay bosh muharrir etib tayinlanishi ana shundan. Shahob Maqsudov “O'qituvchilar gazetasi”da 33 yil mehnat qildi...”

“Ma'rifat” – taqdir, “Ma'rifat” – saodat, degim keldi. Bu dargohga kelib, kimlar ishlamadi, kimlar o'z taqdir yo'lini yaratmadi. Kimdir bir yil, kimdir o'n yil, yana biron o'n bir oy. Buyurgani, nasib qilgani. Katta tarixiy yo'lni bosib o'tgan muqaddas tahririyatning har bir ijodkorga bag'ri ochiq. Gazeta ishiga kamtar, bosiq, bilimdon, sinchkov, hayotning past-balandini bosib o'tgan kishilar rahbarlik qilgan”, deb yozadi O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist Hukar To'ymanova “Ma'rifat” gazetasining 90 yilligiga bag'ishlab nashr qilingan “Mehr va mahorat maktabi” kitobidagi maqolasida.

1960–1980-yillari ta'lim sohasi jamiyat hayotining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, bu matbuot sahifalarida ham yaqqol aks etgan. Gazeta va jurnallarda maktab, o'qituvchi va o'quvchi obrazi doimo siyosiy e'tibor markazida bo'lgani uchun o'qituvchi obrazi matbuotda alohida ehtirom bilan tasvirlangan. U fidoyi, kamtar, jamiyat ravnaqi uchun bor kuchini sarflayotgan insonlar timsoli, o'quvchilar esa kelajakda jamiyatni boshqaradigan, mehnatkash va ongli avlod sifatida e'tiborda bo'lgan. Biroq u paytda ta'lim tizimidagi muammolarni ochiqdan ochiq yozish oson bo'lmagan. Lekin Shahob Maqsudov o'qituvchi bo'lgani, ta'lim tizimini yaxshi tushungani uchun ham maktablarda sinfxonalar yetishmasligi, o'qituvchilar mehnat sharoiti, darsliklar sifati kabi masalalarni mushkul bo'lsa-da kosa tagida nimkosa yo'sinida yoritgan.

– Ilk maqolam 1979-yil 18-fevral sonida “Nuqtali vergul signallari” sarlavhasi ostida chiqqan, – deydi faxriy o'qituvchi Mahmuda Valiyeva. – U vaqtda gazeta “O'qituvchilar gazetasi” nomi bilan nashr qilinardi. Shahob Maqsudov bosh muharrirlik qilgan davrlarda men talaba bo'lganman. Ilk maqolam chiqqanda xursandchiligim ichimga sig'may jurnalistikaga mehrim yanada oshgan. Tahririyatga maktabdagi ustozim Jafar Ma'rupov orqali maqolalarimni yuborib turardim, xato va kamchiliklarim ustida birga ishlardik. Keyinchalik “Ma'rifat” gazetasida muxbir bo'lib ishlash ham nasib etdi, ko'plab maqola, xabar, dars ishlanma, test, suhbatlarim ham chop etildi. Bemalol ayta olamanki, Shahob aka Maqsudov meni “Ma'rifat”ga yaqinlashtirgan ilk inson. Hamon “Ma'rifat” bilanman. Har bir sonini qo'ymay o'qib chiqaman. Juda ko'p muvaffaqiyatlarimda ham uning hissasi katta.

MAKTAB HAM BIR TARIX

Arofat opa bilan Shahob Maqsudov ta'lim olgan Qibray tumanidagi 30-maktabga borganimizda maktab darvozasi-dan kirishdanoq o'sha davr nafasini his qilgandek bo'ldik.

Maktabning tashkil topishi XX asr boshlariga borib taqaladi. 1923-yili hozirgi 30-maktabning pastki korpusi o'rnida 3 xonali bino qad ko'tarib, butun qishloqqa “Maktab ochilar ekan!” degan gap tarqalgan. Shunday



qilib O'nqo'rg'on 88-maktab tashkil topib, unga Nasim Mahmudov mudir etib tayinlangan. 20 ta parta va 40 nafar o'quvchi bilan ilk darsga qo'ng'iroq chalindi.

“Bobom Nasim Mahmudov 1923-yili Toshkentning Sebzor dahasidan O'nqo'rg'on qatnab, hashar yo'li bilan hozirgi 30-maktabga asos solgan, – deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, kinorejissyor Hilol Nasimov “Gulxan” jurnaliga bergan intervyusida. – Maktabga rahbarlik qilish barobarida geografiya, matematika, ona tili va adabiyotdan dars bergan. Sababi, u paytlarda ziyolilar kam bo'lgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan munosabatlari iliqiligi bois shoir vafotidan keyin maktabga uning nomi berilgan”.

Maktab har sohada ilg'or, hatto Moskvada chiqadigan “Сельская жизнь” gazetasining 1982-yil 3-noyabrda 253-sonida maktab haqida “Строит новую жизнь” nomli maqola chiqqan. Unda maktab tarixi va olib borilayotgan ishlar ham bayon qilingan.

– Hozir maktabda katta bir muzey tashkil qilganmiz. Unda jamlangan eksponat va yodgorliklar bir asrlik davrni o'zida jamlagan, – deydi maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Xolida Rasulova. – O'quvchilarda vatanga muhabbat, o'tganlarga hurmat hissini shakllantirishda maktabda tashkil etilgan “Maktab tarixi va o'lkashunoslik” muzeyi o'z o'miga ega. Muzey maktab tarixi va o'lkashunoslik bo'limlaridan iborat bo'lib, uni tashkil etishda maktabning tajribali nuroniy o'qituvchisi Muxtor Rustamov va maktab rahbari Ubaydulla A'zamovning hissasi katta bo'lgan.

Maktab muzeyida barcha maktab direktorlari, maktabni oltin medal bilan bitirgan o'quvchilar va boshqa bir qancha shu maktabdan chiqqan fan arboblari va ziyolilarining ro'yxati tuzib chiqilgan. Shahob Maqsudov uchun esa alohida burchak tashkil qilingan. Chunki uning xalq ta'limi va ayniqsa pedagoglar uchun jon kuydirib katta muammolarni ommaga olib chiqishining o'zi bir jasorat va mana shu maktab o'qituvchi va o'quvchilari uchun o'zgacha bir iftixor tuyg'usini beradi.

– Shahob Maqsudov maktabda dars berib yurgan yillari men endigina ishga kirgandim, – deydi Ubaydulla G'ulomov. – 33-maktabda 26 yil direktorklik qildim. Hozir 93 yoshdaman. Bilasizmi, Shahob aka bilan bizni mana shu maktab, ta'lim va kasbga mehrimiz yaqinlashtirgan. To'g'ri, uzoq ishlamaganmiz, lekin ustoz maktab haqida ko'p va xo'p yozar, pedagoglar ishlarini yuzaga chiqarish, sifatli ta'limga erishish uchun harakat qilardi. U tabiatan shinavanda va halim edi. Bo'yi uncha baland bo'lmasa-da, tiniq ovozi, fikrini aniq aytish bilan ajralib turardi. Radioda diktorg bo'lib ishlash yurgan kezlari ham maktabga kelib dars berib ketar, maktabni hech ko'zi qiymasdi.

Bu maktabda fidoyilik, sadoqat va mas'uliyat bilan yashalgan umrlar izi bor. Shahob Maqsudov timsolida biz nafaqat mohir muharrir, balki ta'lim va matbuotni bir butun deb bilgan, ustozlik va jurnalistlik mas'uliyatini yuzagida ko'targan insonni ko'ramiz. Qibraydagi 30-maktab esa nafaqat bilim beradigan maskan, balki katta insonlarni yetishtiradigan, tarix yaratiladigan muqaddas dargoh ekani yillar davomida isbotlab kelmoqda. Bu maskanda mehr ustuvor, xotira qadrlanadi, ustoz sha'ni e'zozlanadi.

“Ma'rifat” gazetasi o'zining 95 yillik bosib o'tgan yo'li davomida avlodlar o'rtasidagi ko'prikkay aylandi. Unda ishlagan, undan ilhom olgan va u bilan ulg'aygan ijodkorlar uchun bu nashr shunchaki kasb maydoni emas – taqdirga aylangan. Bugun ham bu tarix o'tmishda qolib ketgani yo'q, u tirik: har bir sahifada, har bir xotirada, har bir ustozning mehnatida yashab kelmoqda.

Fayoza AVLAYEVA,
“Ma'rifat” muxbiri

Burhon RIZOQULOV olgan surat.

Ehtirom

Hayotini ilmga bag'ishlagan ustoz

O'zbekiston Respublikasi FA akademigi, O'zbekiston fan arbobi, Beruniy nomidagi davlat mukofoti laureati, biologiya fanlari doktori, professor Tal'at Saatov 1940-yil 15-fevralda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1956–1962-yillari Toshkent davlat tibbiyot institutida ta'lim olgan. 1962–1965-yillari O'zbekiston FA O'lka tibbiyot institutida Biokimyo mutaxassisligi bo'yicha aspiranturada o'qigan. 1966-yili nomzodlik va 1974-yili doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1980-yili professor unvoniga sazovor bo'lgan. 1989-yili O'zbekiston FA muxbir a'zosi, 2000-yili esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi etib saylangan. 2024-yili I darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.



1965–1967-yillarda O'zFA Biokimyo institutida kichik ilmiy xodim, 1967–1975-yillari katta ilmiy xodim, 1975–1979-yillarda laboratoriya mudiri lavozimlarida ishlagan. 1979–2010-yillari O'zbekiston FA Biokimyo instituti direktori, 2012–2018-yillari Bioorganik kimyo instituti Metabolomika laboratoriyasi mudiri, 2018-yildan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Biofizika va biokimyo instituti Metabolomika laboratoriyasi mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

Tal'at Saatov ilmiy faoliyatini 1963-yili akademik Yolqin To'raqulov rahbarligida qalqonsimon bez oqsillarini o'rganishdan boshlagan.

U qalqonsimon bez tarkibidan 2 ta yod saqlovchi oqsil-tireoglobulin va tirealbuminlarni toza holda ajratib oldi va bu yod-proteinlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari,

tarkibi hamda tireoid gormonlarning sintezidagi alohida ahamiyatini tadqiq qildi. O'z ilmiy izlanishlari natijalari asosida bo'qoq paydo bo'lishining genetik nosozliklar bilan bog'liqligi haqidagi gipotezani ilgari surdi.

Akademik Tal'at Saatov membrana lipidlarining gormonlar ta'sir mexanizmidagi muhim o'rnini o'rganuvchi yangi ilmiy yo'nalishga asos soldi. U boshqarayotgan ilmiy maktab lipidlarning strukturasi va funksiyasi hamda ularning hujayra metabolizmini boshqarishdagi rolini chuqur o'rgandi va o'rganmoqda. Ustoz membrana lipidlarining gormonlar resepsiyasi va gormonal ta'sirning hujayra ichiga uzatilishida muhim ekanligini aniqlab berdi. O'zi va shogirdlari dunyoda birinchilar qatorida plazmatik membranalarda tiroksinning reseptorlari mavjudligini va ushbu reseptorlar faoliyatining adenilatsiklaza tizimi bilan bevosita

bog'liqligini isbotladilar. Ushbu reseptor toza holda ajratib olinib, uning tarkibi va faoliyat mexanizmlari o'rganildi.

Akademik T.Saatovning yirik ilmiy kashfiyotlaridan biri – organotropik liposomalarni yaratish va ularni inson organlariga bevosita yo'naltirish uslubidir. Ushbu liposomal biotexnologiya, membrana va gen muhandisligini rivojlantirish va dori moddalarni organizmning aynan belgilangan organida to'plash imkonini beruvchi samarali vositadir.

Olim va uning shogirdlari insulinning ta'sir mexanizmini o'rganish va qandli diabet paydo bo'lishining molekulyar asoslarini tushuntirish ishiga ham hissa qo'shdilar. Ushbu fundamental tadqiqotlarning natijalari asosida organizmning insulina sezgirlikni aniqlab beruvchi tezkor usul ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq qilindi.

Oxirgi yillarda akademik T.Saatov O'zbekiston uchun butunlay yangi bo'lgan ilmiy yo'nalish – hujayralarning genetik dasturlashtirilgan o'limi (apoptoz), neyrodegenerativ kasalliklarning kelib chiqish sababi, alsgeymer, parkinson paydo bo'lishi va rivojlanishining molekulyar asoslarini o'rganish ustida samarali tadqiqotlar olib bormoqda. Saraton hujayralari apoptozi induktorlarini izlash va ularning mexanizmlarini o'rganish hozirgi zamon biologiya va tibbiyot fanlarining eng dolzarb muammolaridan biridir. Aynan shu muammoni hal qilish vazifasini

ustoz boshqarayotgan laboratoriya xodimlari o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar.

Ustoz ko'p marotaba nufuzli xalqaro anjumanlarda ilmiy ma'ruzalar bilan ishtirok etib, jahon olimlarini O'zbekiston biokimyo fani yutuqlari bilan tanishtirgan. Domla 8 ta monografiya, 26 ixtiro va 700 dan ortiq ilmiy asarlarning muallifidir. 9 nafar fan doktori va 35 nafar fan nomzodlari tayyorlagan.

Akademik T.Saatov hozirgi kunda Toshkent pediatriya tibbiyot institutida Biokimyo fanidan ma'ruzalar o'qiydi. Ilmiy faoliyat bilan bir qatorda ulkan ilmiy tashkilotchilik ishini ham olib boradi. Metabolomika laboratoriyasi mudiri sifatida o'zining butun ilmiy salohiyatini respublikamizda biokimyo fanining ustuvor muammolarini hal qilish va uning natijalarini davlatimiz ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqi yo'lida tatbiq etish, institutda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni respublika va xorijiy ilmiy markazlar tadqiqotlari bilan muvofiqlashtirish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalarini hal etishga yo'naltirgan. Tal'at Saatov 30 yildan ortiq vaqt mobaynida Biokimyo va Hujayra biologiyasi ixtisosliklari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi ixtisoslashtirilgan kengashga rahbarlik qilmoqda. Shuningdek, bir nechta ilmiy jamiyatlarning a'zosi. Jumladan, u Yevropa qiyosiy endokrinologiya jamiyatiga haqiqiy a'zo bo'lib saylangan, O'zbekiston biokimyogarlari ilmiy jamiyatining raisi. Mamlakatimiz va xorijda chop etiladigan bir necha ilmiy jurnallar tahrir hay'ati a'zosi hamdir.

Muhammadjon MUSTAFOQULOV,
O'zbekiston Milliy universiteti
huzuridagi Biofizika va biokimyo instituti
Metabolomika laboratoriyasi
katta ilmiy xodimi,
biologiya fanlari nomzodi



FAN VA TEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

“Iqtisodiyot” kafedrası: - katta o'qituvchi – 1 nafar; - o'qituvchi – 1 nafar.	“Xorijiy tillar” kafedrası: - kafedra mudiri – 1 nafar; - katta o'qituvchi – 1 nafar; - o'qituvchi – 1 nafar.
“Pedagogika” kafedrası: - dotsent – 1 nafar; - katta o'qituvchi – 1 nafar.	“Aniq fanlar” kafedrası: - dotsent – 1 nafar; - katta o'qituvchi – 1 nafar; - o'qituvchi – 1 nafar.
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası: - dotsent – 1 nafar; - katta o'qituvchi – 1 nafar; - o'qituvchi – 1 nafar.	“Ijtimoiy fanlar” kafedrası: - dotsent – 1 nafar; - katta o'qituvchi – 1 nafar; - o'qituvchi – 1 nafar. “O'zbek tili va adabiyoti” kafedrası: - dotsent – 1 nafar; - katta o'qituvchi – 1 nafar.

Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- ✓ universitet rektori nomiga ariza;
- ✓ oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom nusxalari;
- ✓ mehnat daftarchasi nusxasi;
- ✓ malaka oshirganligi to'g'risida ma'lumot;
- ✓ ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati (3x4 shakl);
- ✓ ijodiy ishlar ro'yxati, ijodiy ishlar fotoalbomi.

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida universitet xodimlar bo'limi tomonidan qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Diydor ko'chasi, 71-uy.

Murojaat uchun telefon: (97) 747-87-65.



Hikoya



Bolaligimdan ko'p badiiy kitob o'qirdim. Ular orasida o'gay onalar, farzandlar haqidagi hikoyalar ham bo'lib, asar qahramonlari bilan bog'liq achchiq haqiqatlar menga yomon ta'sir qilardi. O'gaylik qismatimda ham bor ekan...

Hamshiraman. Dam olish oromgohlaridan birida ishlayman. Turmushga berishganda boshqa teng-qurlarim kabi baxtli bo'lib, farzandlar ko'raman deb o'ylagandim. Ammo birinchi turmushimdan farzandli bo'lolmagach, ajralishdik. Ikkinchi turmushga uzatishdi. Oradan yillar o'tsa-da, yana o'sha holat. Shifokor ko'rigida bola ko'rolmasligimni aytishdi. Ota uyidaman. Taqdirimdan o'ksigancha, boshqa turmush qilmadim. O'zimni ish bilan ovutaman.

Oromgohga dam olish, salomatligini tiklash maqsadida kelgan mo'ysafid kishi meni ko'p suhbatga tortadigan bo'lib qoldi. Men haqimda surishtirib, boshim ochiqqligini bilgach, turmush qurishni taklif qildi.

– Sakkiz farzandim bor, turmush o'rtog'im og'ir xastalikka uchrab, vafot etgan, yaxshi ayol edi. Bolalarim ulg'ayib, uyli-joyli bo'ladigan yoshga yetib qolishgan. Ularga ona parvarishi kerak, – deya hasrat qilib qoldi u. Bundan xabar topgan hamkasblarim ham “Juda senbop oila ekan, bolalarga onalik qilib, boshlarini silasang, savobga qolasan, rozi bo'lg'in!” deb maslahat berishdi. Uyimizdagilar ham shu odamga turmushga chiqishimni ma'qullashdi. Shunday qilib turmush qurdik. Turmush o'rtog'im Siroj aka korxonalaridan birida ombor mudiri, hisobchi vazifalarida ishlar, topish-tutishi yomon emasdi. Boshida bolalar meni onasi o'rnida qabul qilishi qiyin bo'ldi. Imkon boricha bolalarga yaxshi gapirishga, ko'nglini olishga urinardim. Qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'y ichida “o'gay-da, o'gay o'gayligini qiladi”, singari g'iybatlarga o'rin qoldirmaslikka harakat qilardim. Bolalarning kattasi Sattor talaba edi, o'qishdan ortib, ishlardi. Ko'nglimga qarar, yaxshi muomala qilar, otasi ishdaligida ukalarini boshqarar edi.

– Aya, kelganingiz yaxshi bo'ldi, endi o'qishimga, ishingam xotirjam borib kelsam bo'ladi, – derdi-yu, “Bu ayol o'gaylik qilib, ukalarimga qattiq tegmasmikan?”, deya hadikda ekani sezilib turardi. To'rt o'g'il, to'rt qiz... Qizlarning kattasi Sayyora, maktabning yuqori sinfida o'qirdi. Men kelgach, uning hech chehrasi ochilmadi.

Bir kuni uning uyning tomiga tez-tez nimalarnidir tashiyotgani, narvonda erinmay chiqib-tushayotgani diqqatimni tortdi.

– Sayyora, yiqilib tushmang, qizim, ehtiyot bo'ling, – dedim uning shosha-pisha chiqib-tushayotganidan xavotirlanib.

– Men bilan ishingiz bo'lmasin, siz baribir onamning buyumlariga ega chiqolmaysiz, – dedi u qo'rs-

lik bilan. U onasi to'plagan qimmatbaho latta-put-talar, bolalarga atalgan sep-sidirg'alarini sandiqqa joylashtirayotgandi. Axir ular menga nega kerak? Bolalarga tegishli ekanligini men ham yaxshi bilaman, nahotki ularga ko'z olaytirsam?! Sayyora-ning qo'rsiligidan dilim og'ridi. Biroq shaytonga hay berib, chidashga qaror qildim. Gavhar, Farida, Nasiba, Yodgor, Shokir, Asilbek hali kichik yoshda. Ular menga tez ko'nikishdi, nasihat, maslahatlarimga qu-loq solishardi.

– Roziya, bilaman sizga oson bo'lmayotganini, bolalarning injiqliklari uchun uzr so'rayman, ular bilan tez til topishib ketasiz, sizga ishonaman, – bot-bot takrorlardir Siroj aka. Ranjib, ketib qolishimdan xavotirda edi.

**“O'GAY EMAS,
O'Z ONAM...”**
(Roziya ona hikoyasi)

Unga Sayyoraning qilgan ishi, muomalasi haqida hech narsa demadim, kechki ovqatdan so'ng, suhbatlashib o'tirgan vaqtda u:

– Bolalar xafa qilmayaptimi, qiynalmayapsizmi? – deb so'rardi.

– Biz bir-birimizni yaxshi tushunib oldik, xavotir olmang, – deya uni xursand qilardim...

Kunlarning birida maktabning boshlang'ich sinfiga qatnayotgan Asilbek shamollab, isitmalab, yotib qoldi. Uni darrov shifokor qabuliga olib bordim. Shifokor yozib bergan dorilar bilan bir necha kun o'zim muolaja qildim. Asilbek tuzaldi. Yana avvalgidek maktabga qatnay boshladi.

Sayyora maktabni bitirib, universitetga o'qishga kirolmadi. Bichish-tikishni o'rgata boshladim. Bolalarning ko'ngliga qarashim, ularga g'amxo'rlikim, injiqliklariga sabrliligim Sayyoraning ham qalbini biroz yumshatgandek edi. Lekin u baribir meni onasidek ko'rishga qiynalayotganini sezdirib qo'yar, ba'zan unga bergan savollarim javobsiz qolardi.

– Bolam, birovning bolasini bola qilish osonmas, tog'dek bardosh, baquvvat yurak, keng sabr kerak. Sabrli bo'l, shunday qilginki, bolalar seni yaxshi ko'rib qolsin, – derdi onam.

Sayyoraga sovchilar kela boshladi. Siroj akaning opa-singillari bilan maslahatlashib, uni yaxshi bir joyga unashtirdik.

– Sayyora, sandiqlarni och-chi? – deb qoldi to'y arafasida biznikida bo'lib turgan Tojixon amma. Sayyora onasidan qolgan tilla taqinchoqlarni olib tushdi.

– Bu matohlar bo'lmaydi, urfdan qolgan, sep-ga yaramaydi, – Tojixon ammaga kiyimlikka deb saqlangan matolar yoqmadi. – Roziyaxon, ukamdan pul olib, bozorga tushasiz, Sayyora uchun kelinlikka mos kiyimliklar sotib olasiz, – menga so'z qotdi u. Shunda bozordan yaqindagina o'zim tanlab, xarid qilgan matolarni, kelinlarga mos keladigan zamonaviy, qimmatbaho liboslarni yashirib qo'ygan joyimdan olib chiqdim.

– Bular bo'ladi?

Tojixon ammaning chehrasiga tabassum yorishdi.

– Rosa bo'ladi-da! Voy aylanay, sizdan, ha! Sepni badastir qilib qo'yibsiz-ku!

Sayyoraga ham liboslar yoqdi, menga mamnun qarab qo'ydi...

To'y o'tdi. Sayyora risoladagiday kelin bo'ldi. To'ydan so'ng charlar, ko'rmana marosimlarini ham hech kimdan kam qilmay o'tkazdik.

– Ayasi, ortiqcha sarf-xarajat bo'b ketmadimi? Shunchalik qimmat narsalar olish shartmidi? – Siroj aka xijolat bo'lib so'radi.

– Shart, dadasi, farzandimiz uchun qilyapmiz-ku, u o'ksimasligi kerak.

...Oradan bir necha kun o'tib, bayram kunlaridan birida kelin-kuyovni mehmonga chaqirdik. Mehmondorchilik yaxshi o'tdi. Kuyov-kelin qaytar chog'ida Sayyora yugurib kelib meni quchoqlab, bag'rimga bosh qo'ydi.

– Rahmat, aya, hammasi uchun... Dilingizni ko'p og'ritdim, meni kechiring, oldingizda xijolatdaman... – dedi ko'zlari yoshga to'lib...

Oradan yillar o'tdi. Bu orada Sattorni uylantirdik, qolgan bolalar ham birin-ketin maktabni tamomlab, oliygohlarda o'qishdi. Qizlarni navbat bilan yaxshi oilalarga uzatdik, o'g'illarni uylab, ularni alohida hovli-joy qilib, chiqardik. Ayni vaqtda Asilbekning oilasi bilan katta hovlida yashaymiz.

– Roziya, to'g'risi, sakkiz bola bilan qolganida, ularni qanday eplayman deb xavotirlanardim. Ularning yemoq-ichmog'i, tarbiyasi, kam-ko'stini joy-joyiga qo'yishni hech aqlimga sig'dirolmasdim. Ko'pchilik sakkiz bolam borligini eshitib, rad javobini berar, juda mushkul ahvolda qolgandim. Taqdirimdan xursandman, sizday ayolni ro'para qildi. Bugun hammasi oilali, o'zidan tinchigan. Bu oson bo'lmaganini yaxshi bilaman. Barchasiga qanoat qilganingizdan, ularning ko'ngliga yo'l topolganingizdan, ancha-muncha gap-so'zlarga o'rin qoldirmaganingizdan xursandman, rahmat sizga...

Yaqinda to'ng'ich o'g'lini uylantirayotgan Sayyora bilan yonma-yon turib, qudalarni kuzatayotganimizda, mehmonlardan biri:

– Sayyoraxon, bu kishi kimingiz bo'ladi? – deb so'rab qoldi.

– Onam, o'z onajonim, – dedi u menga jilmayib boqarkan...

Umida EGAMBERDIYEVA,
Buloqboshi tumanidagi
2-maktab o'qituvchisi,
O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a'zosi

To'liqin meni haydab solar
O'ng tomonga, chap tomonga.
Taqdir esa uloqtirar,
So'ramasdan to'rt tomonga.
Derman: – Olg'a intilaman,
Dovullarni yengib o'tib.
Hayotimda duch kelsam-da,
Bir yaxshi-yu, bir yomonga.

Shamollarning hushtagidan
Shovullaydi yelkanlarim.
Qayga boray, qay manzilga,
Men bilmagan, bilganlarim...
Maqsad sari hech to'xtamay,
Doim olg'a intilaman.
Manzilimdan adashtirmas,
Men ko'rmagan, ko'rganlarim.



Taqdir kemasi



Qushlar menga yo'l ko'rsatib,
Uchib borar manzil tomon.
Ko'z tikkanlar umid bog'lab,
Turishibdi hali-hamon.
Quyosh hali botmay tursa,
Oyoqlarim tolmay yursa,
Maqsadim ham manzilimga
Yetib borgum eson-omon.

Hoy, taqdirning charxpalagi,
Qiynayverma ko'p ham meni.
Sho'x taqdirning ummonida
Ko'rsatmading menga neni!



Baxt-u omad, quvonch, rohat,
Qayerdasiz, chiqing peshvoz.
Ko'ksimdagi bu orzular,
Umid bilan kutar sizni.

Yelkanlarim baland olib,
Manzil tomon bormoqdaman.
Taqdir uzra insonlarga,
O'chmas umid bormoqdaman.
Keng ummonda ham tashvish-u,
Ham quvonchlar bo'lganda ne?
Orzu-umid urug'larin,
Qoldirmayin termoqdaman.

Meni hech kim to'xtatolmas
Orzu tomon yo'llarimdan.
Farishtalar kabi qushlar,
Eltar ushlab qo'llarimdan.
Orzumning ro'yosi tomon,
Bugun dadil suzmoqdaman.
Menga shunday ishonch bergan,
Aylanayin o'ylarimdan.

To'liqin meni haydab solar,
O'ng tomonga, chap tomonga...

Ilhom YUSUPOV,
Oqqo'rg'on tumanidagi
1-politexnikum maxsus fan o'qituvchisi





Abdullayev Ibroxim Numanovichning 05.09.08 – Qurilish texnologiyasi va qurilish jarayonlarini tashkil qilish hamda 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlari ixtisosliklari bo'yicha “Ko'p qavatli turarjoy binolari qurilishi sifatiga texnologik jarayonlarning ta'sirini baholash” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.09.01.T.02.M raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-fevral kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 9-uy.

Tel/faks: (55) 508-02-95, 508-50-06; e-mail: devon@taqu.edu.uz

Dergachyova Irina Viktorovnaning 11.00.03 – Quruqlik gidrologiyasi. Suv resurslari. Gidrokimyo ixtisosligi bo'yicha “O'zbekiston hududida kutilmagan toshqinlar: genezisi, hudud va vaqt bo'yicha tarqalishi, tabiiy ofat xavfini kamaytirish” mavzusidagi(geografiya fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.18/2025.27.12.Gr.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bodomzor yo'li 1-tor ko'chasi, 72-uy.

Tel/faks: (71) 235-85-12, 237-13-19; e-mail: info@nigmi.uz

Shomirov Dilshod Abduhamidovichning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Ayollarda gisterektomiyadan keyin jinsiy prolapslarni bashoratlash va oldini olish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-fevral kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100124, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132-“a” uy.

Tel/faks: (71) 263-33-14; e-mail: info@uzaig.uz

Qahhorov O'ktam Abduraximovichning 05.09.06 – Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi ixtisosligi bo'yicha “Poymadagi oqimning suv o'tkazmas ko'ndalang dambalar yordamida ikki tomonlama siqilishini hisoblashning nazariy va eksperimental usullarini asoslash” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.

Tel/faks: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz

Malikova Nilufar Nusratullayevnaning 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha “Akne patogenezining klinik, genetik va biokimyoviy asoslari: klinik kechishini prognozlash va davolash strategiyasiga yangicha yondashuvlar” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-fevral kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 3-uy.

Tel/faks: (78) 147-02-06; e-mail: niidiv@mail.ru

Ibragimov Salim Safarovichning 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha “Uzumni quritishga mo'ljallangan tabiiy havo konveksiyali va issiqlik quvurli bilvosita quyosh quritish qurilmasi” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika univesiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.28.11.T.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.

Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu.@kstu.uz

Allayorov Baxodir Kurambayevichning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “COVID-19 sabab pnevmoniya bilan asoratlangan ayollarda homiladorlikni olib borish taktikasini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-fevral kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100124, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,

Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132-“a” uy.

Tel/faks: (71) 263-33-14; e-mail: info@uzaig.uz

Abduraxmanov Jasur Nematovichning 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha “Erta yoshdagi bolalarda o'tkir pnevmoniyaning vegetativ buzilishlar fonida kechish xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-fevral kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-30-34, e-mail: ilmiyprorektor@sammi.uz

Quryozov Izzatbek Rajabovichning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha “Don uchun yetishtirilgan makkajo'xorining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga mineral o'g'itlar me'yorlarining ta'siri (Xorazm viloyatining sug'oriladigan allyuvial o'tloqi tuproqlari sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-fevral kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUEAITI ko'chasi.

Tel/faks: (78) 150-62-84, (71) 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Mustafayeva Malika Rustamovnaning 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosligi bo'yicha “Kontrast indutsirlangan nefropatiya o'tkazgan bemorlarda surunkali buyrak kasalligi rivojlanishini bashoratlashning klinik-laborator jihatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 24-fevral kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-0050; e-mail: info@bsmi.uz

Karimov Nurbek Dexkanovichning 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo'yicha “Soya ekin maydonlarida uchraydigan begona o'tlarga qarshi kurashning agrotexnologik elementlarini takomillashtirish(Andijon viloyati sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.10.2020. Qx.126.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-fevral kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Oliygo'ha ko'chasi, 1-uy.

Tel/faks: (74) 224-02-82, 224-02-62; e-mail: andqxai@exat.uz

Qodirova Mohidil Nosirovnaning 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosligi bo'yicha “Tug'ish yoshidagi ayollarda xelikobakter pilori bilan assotsirlangan temir tanqisligi kamqonligining uchrashi, tashxislash va davolashni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-0050; e-mail: info@bsmi.uz

Xamdamova Lola Zarifovnaning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha “Tamaki ta'sirida nikotinli stomatitning davo-profilaktika choralarini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-fevral kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (65)-223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Yunusova Umida Axmadjanovnaning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha “Buxoro viloyati bolalarida tish qatori nuqsonlarini ortopedik davolash orqali tish-jag' anomalialari va deformatsiyalarining oldini olish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (65)-223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Zakirov Rustam Ruxullayevichning 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha “Soch follikulalari og'izchalari mikrofibrozanishi bo'lgan bemorlarda androgen alopetsiyani davolash va profilaktikasini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-fevral kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 3-uy.

Tel/faks: (78) 147-02-06; e-mail: niidiv@mail.ru

Zaripov Musliddin Bahodir o'g'lining 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha “O'zgaruvchan kesimli kanallarning nostatsionar oqim sharoitida gidravlik hisob usulini takomillashtirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 3-mart kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Xonobod shohko'chasi, 19-uy.

Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz



“Machaylik yigit” portretiga chizgilar

(Davomi. Boshi 11-betda.)

Tog'da tunashning o'z gashti bo'ladi. Buni faqat baland-baland tog'lar cho'qqisida tunab qolgan “Machaylik yigit” his qiladi! Yulduzlar boshiga tegib turadi... Pastga enishda esa qoyalar ustida mag'rur burgutlar, archalar orasida bahaybat yapaloq qushlar zo'rg'a enayotgan bu ojiz bandani jim kuzatib turgan bo'ladi. Yapaloq qushlar o'ziga yarasha ulkan yirtqichlardir. Qanotini yoyganda bir odam bastiga teng keladi. Odam qiynalib bir zovdan ikkinchisiga o'tadi. Shu daralar ichra bemalol o'rmlab yurgan chumolidan ham ojiz ekanini his qiladi. Ikki taraf keta-ketguncha tik qoya, goh yo'l to'siladi, goh bu qoyalarning chap tomoniga, goh o'ng tomoniga tirmashib pastga tomon enaveradi u.

Bulutlardan pastlashganda sel ketgan bo'ladi. Biror zovda yo biror g'orda panalaydi. Bundan enib tushish qorlar oralab bosh ko'targan cho'qqilarga tirmashishdan qiyin kechadi. Ammo zaminga yaqinlashgan sari zov turtmasin deb ehtiyot bo'ladi. Zov turtmaydi. Bu bo'rtib turgan mustahkam, qo'zg'almas, bahaybat toshlarni sen turtma degani. Yelka, gardan, bosh, tirsak bexos bu toshlarga tegib ketib muvozanatni yo'qotib halokatga uchrash mumkin. Daralar bu qadimiy suv yo'llari. Million yillar davomida suv tarashlagan shunaqa silliq toshlar borki... Oq, qo'ng'irtus, qizil, qoramtir... Barmoqlar bilan changallab ushlab bo'lmaydi, bu jonli toshlarni faqat silab o'tish mumkin. Toshlar ham yashashga mahkum, ular ham tirik... Bu tog'lar ko'ksiga qoqilgan, bu tog'lardan o'sib chiqqan zarradek, koptokdek... uydek uydek toshlar bor.

Enaveradi, enaveradi. Va nihoyat pastga yetib keladi. Charchagan bo'ladi, biroz o'tirib tin oladi. Ust-boshi ho'l, shilta-shalabbo. Kiyimlar og'irlik qiladi. Qirq-ellik kishi bemalol sig'adigan kattakon g'orga archalarni ushlab tirmashib chiqadi. G'or pasti qizg'ish tuproqli. Bus-butan katta bir toshning bir qanoti ostida joylashgan. Bu dunyoga mashhur Teshiktosh g'ori bo'ladi.

“Machaylik yigit” kiyimlarini siqib toshlarga yoyadi. G'orda, qabrlarda kul qoldiqlari, bahaybat toshlarda turli yozuvlar, turli rasmlar... U shox-shabbalar yig'ib olov yoqadi. Olov atrofiga cho'k tushadi. Bundan million yillar oldin ham bu yerda odamlar yashagan. Million yillar oldin ham olovlar yongan. Million yillar oldin ham odam odamni ko'mishni bilgan. Olovga termulib o'ygacha cho'madi. Bundan million yillar oldin ham odam-

lar o'ygacha cho'mgan. Bundan million yillar oldin ham insonlar bu dunyo ranglarini ko'rib hayratga tushgan. Tabiatdan zavqlangan. Hayratlangan. Bundan million yillar oldin ham ranglar bo'lgan, “Machaylik yigit” bo'lgan, odam bo'lgan... Bu tog'larning har bir toshini bilgan “Machaylik yigit” Yuqori Machayga yetib kelib, yanada pastlab O'rta Machayga yo'l oladi.

Bu payt rassom esa yuqoriga qarab o'rmladi. Moshin zo'riqib yo'lga tushdi. Darband orqada qoldi. Bu yog'i dara oralab tog' ko'ksini yorgan uzoq yo'l. Bu yo'l faqat Machayga olib boradi, bu yo'l Machaydan boshlanib Machayda tugaydi. Yo'l yoqalab shovullab oqib kelayotgan Machaydaryo ham yo'ldek tog'lar ko'ksini yorib Boysun tomon oqib boradi. Bir mashina arang sig'adigan uzoq yo'l va undan ikki barobar katta, shovullab turgan daryo! Daryoning shovullagan ovozi mashina oynalarini yorib ichkari kiradi. Haydovchi ozgina xato qilsa, daryoga tushib ketadi yo qoyalarga uriladi. Daryo ham goh chap, goh o'ng tomonda toshdan toshga sakrab oqaveradi. Ikki-uchta beton ko'priklarga duch keladi. Moshin o'tishi uchun har yil maxsus quriladigan bu ko'priklarni sel kelganda suvning qudrati qo'porib ketgan va yana qaytadan qurilgan bo'ladi. Goh yo'l ustiga yastanib qolgan toshlarga duch keladi, ming xavotirda aylanib o'tadi. Yassi qoyalardan toshlar dumalab tushsa, tik qoyalardan yog'ilib tushadi. Ba'zan osmonni ko'rish uchun osmonga qaraydi, osmon ko'rinmaydi.

Rassom hadik bilan qoyalardan bo'rtib chiqqan toshlarga qarab qo'yadi. Moshin tosh tagida qolib ketmasin, degan xavotirda bo'ladi. Momoqaldiraq gumburlaydi. Yomg'ir yog'sa kerak, deb o'ylaydi. Haydovchi esa yo'ldan ko'zini olmay: “Daryoga tosh tushdi, Xudo bizni asradi. O'tganimizni qarang, meymon...”, deydi. Biroz tin olish, moshinni ham dam oldirish uchun rassom tashqariga chiqadi. Go'zal, fusunkor tabiat. Shabada esadi, qushlar chug'urlyadi. Chigirtka sayraydi. Machaydaryoning shovullashi quloqqa xush eshitiladi. Barchasida ma'no bor, kuy bor, ohang bor, til bor. Shu baland tog'lardagi ilonlarda zahar bor, bo'rda vahshiylik bor, ayiqda yovuzlik bor, burgutda yirtqichlik bor, ammo g'araz yo'q, fitna yo'q, hasad yo'q, fisqi-fujur yo'q, tuhmat yo'q, ig'vo yo'q...

Machay tuprog'i boshlanadi. “Machayga ketyapsizmi?” deya hech kim so'ramaydi. Chunki bu yo'l faqatgina Machayga olib boradi. U atrofni kuzata boshlaydi. Toshidan terilgan pastqam devorlar, guvaladan tikka qilingan turli uylar, ba'zan g'ishtli, taxtali uylar ham uchraydi. Aksariyat uylarga terak yo'g'ochi yo taxtalar birkirilmagan. Shiftga sinchiklab qaralsa, minglab ko'zi bor archalar. Mahalliy xalq tili bilan aytganda “xari”lar qo'yilgan bo'ladi. Tog'dan kesib kelingan bu og'ir yog'ochlarni eshakilarga ortib sudrab tushib, so'ng teshalab tomga qo'yiladi. Bitta bolor uchun bir marta toqqa chiqib tushiladi, qurilgan uyning bitta xonasiga o'nta yog'och ishlatilsa, o'n marta tog' yonbag'ridagi archazorlarga chiqib tushish kerak bo'ladi. Bitta uyning yog'ochi uchun kamida ellik marta toqqa chiqib tushilgan bo'ladi. O'rkach-o'rkach qirlar oshib bitta xarini yelkalab kelish yo eshakda sudrab kelish bir insonning qo'lidan kel-



maydi. Qishda yoqiladigan o'tinlar ham archadan. Qor kechib sudrab kelinadi. Bu yo'llarda “Machaylik yigit” necha bor yiqilgan, turgan. Tizzalari pishib ketgan. Insonlar chumolidek betinim mehnat evaziga yashashadi. Pechkalar uying qoq markazida joylashgan, olovning tafti tevarakka birdek uradi. Odamlar shu olov tegrasida qishni o'tkazadi. Qish oylarida birov Machayga kelmaydi, birov Machaydan chiqmaydi. Kunlar isisagina odamlar qo'zg'alib qoladi.

O'sha olis yo'llarda rassom o'z qahramoni bilan yuzlashadi, bir lahzalik diydor bir san'at asari yaralishiga sabab bo'ladi. Machaydagi tog'-toshlar, odamlar, tabiat latofatining yig'indisi ilhom bo'lib Erkin Orol qalbiga quyiladi va u yo'lda duch kelgan yigit portretini chiza boshlaydi. Bu portretning nafaqat “jismi”ga, nigohlari-gacha tog'liklarga xos bo'lgan chayirlikni singdiradi. Yigit tiynatiga sha'nni, orni, nomusni ranglar bilan yuklaydi. Kurashlarda chiniqib ulg'aygan rassom ham o'ziga tanish bo'lgan “erkakka xos g'ujur”ni shu portretga chizib ko'rsatadi. Machay elining orzu-umidlari, armonlarini shu yigitning ko'zlarida aks ettiradi. Bu yigit bilan qayta ko'rishadimi-yo'qmi, rassom bilmaydi. Bu asar taqdiri nima bo'ladi, bu ham rassomga qorong'u. Bu portret orqali biror “maqsad” ko'zlamaydi. Faqat quyilib kelgan ilhom shu portretni chizishga undagan. Rassom asaridagi yigit esa bu asarning tugallanganini ko'rgan yo'q. Ehtimol, chizilganidan ham bexabardir. Rassom chizayotganda haqiqiy machayliklarning yuz-chanoq tuzilishlarini ham unutmaydi.

Rassom o'z qahramoniga Machayda duch keldi. Machaylik yigit o'z yo'liga ketdi. Rassom o'z yo'liga. Biroq o'zbek rang tasvir san'atida yangi uslubda yangi bir portret yaratildi. Bu portret hozir Pavel Benkov nomidagi rassomchilik maktabining galereyasida osilib turibdi. Bu kartinaning nomini o'qib, so'ngra zinadan tushib tashqariga chiqdim. Maktab o'quvchilari bog'ga molbert qo'yib nimalardir chizayotgan edi. Erkin Orol esa kepkan bostirgancha o'quvchilarga nimalardir gapirib, o'rgatib, yelib-yugurib, bo'yoq tekkan yengini shima-rib, kuyib-pishib yurardi. Ichkarida esa uning o'ttiz yillik ijodi qator osilib turardi...

Talant TOLERANT



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6030. Tiraji 4800.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



“Ma'rifat”dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va mual-
lifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.